

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH
MARKAZI**

Ro'yxatga olindi:

№ IT-7-42

2025 yil «28» may

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2025 yil «19» maydagi 88-sonli Farmoni
asosida tasdiqlandi

Bilim sohasi: Sog'liqni saqlash

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
UZLUKSIZ TIBBIY - FARMATSEVTIK
TA'LIMNI MUVOFIQLASHTIRUVCHI
KENGASH

“OILA SALOMATLIGI BO‘YICHA MAXSUS O‘QUV DASTURI” asosida

“OILAVIY SHIFOKORLIK” mutaxassisligi bo‘yicha

ixtisoslashtirish kursi gibrid o‘quv dasturi

(o‘qish muddati – 1440 kredit, 10 oylik)

Toshkent 2025

Tuzuvchilar:


- M. Ug'urlu Anqara Yildirim Beyazit Universiteti Tibbiyot fakulteti, Oilaviy tibbiyot kafedrası mudiri lavozimida faoliyat yuritgan
- R.Q. Dadabayeva Toshkent davlat tibbiyot universiteti Vrachlar malakasini oshirish kafedrası mudiri, t.f.d., dotsent.
- M.S. Masharipova Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Oilaviy tibbiyot va kasb kasalliklari kursi bilan kafedrası dotsenti, t.f.n.

Taqrizchilar:

- M.S. Kasimova Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, t.f.d., professor
- Ye.A. Shamansurova Toshkent davlat tibbiyot universiteti Oilaviy shifokorlik-1, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrası mudiri, t.f.d., professor

O'quv dasturi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Markaziy tashkiliy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan.

2025 y. « 28 » may, bayonnoma № 11

Kengash raisi  M.S. Kasimova

O'quv dasturi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining Olimlar Kengashida ko'rib chiqilgan.

2025 y. « 28 » may, bayonnoma № 51

Kengash raisi  X.A. Akilov



1.Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–88-sonli farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi “Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–185 qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inini mustahkamlash va rivojlantirish mamlakatimizda sog‘liqni saqlashni isloh qilish Davlat dasturining asosiy yo‘nalishidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4666-sonli qaroriga muvofiq, tibbiy-sanitariya xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimini yaxshilash, ushbu sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni zamonaviy ta’lim standartlari asosida tayyorlash, tibbiyot tashkilotlarini, ayniqsa birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini professional mutaxassislar bilan ta’minlash 2019–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan.

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4310-son va 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi №160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta’minlash doirasida ishlab chiqilgan.

Ushbu dastur oilaviy shifokorlik amaliyoti ixtisosligini egallash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni kundalik amaliyotda qo‘llash, hamda shifokorning yangi kasbiy kompetensiyalarini egallab, xalqaro standartlarga javob beradigan, raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan. Shuningdek, oilaviy amaliyot shifokorligida eng ko‘p uchraydigan kasalliklar, ularning profilaktikasi, klinik manzarasi, simptom va sindromlari, XKT-10 bo‘yicha tashxis qo‘yish, kasalliklar nozologiyasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yangi klinik protokollar va standartlar, isbotlangan dalillarga asoslangan tibbiyot masalalari ushbu dastur tarkibiga kiritilgan.

1.1. Maqsad:

Oilaviy shifokor faoliyati uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarga ega yangi mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, yangi bilim va ko‘nikmalarni gibridda o‘rgatish.

1.2. Vazifalar:

1. Amaliyotda sog‘liqni saqlash sohasidagi asosiy qonunlar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatini tashkil etishda qo‘llash usullarini o‘rgatish;
2. Zamonaviy milliy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirish hamda ular asosida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. Shifokorlarni isbotlangan tibbiyot asoslariga o‘rgatish va uni birlamchi tibbiy-sanitariya xizmati tizimi amaliyotiga tadbiq qilish;
4. Soha bo‘yicha asosiy birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;
5. Biriktirilgan aholi guruhlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko‘p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarini erta aniqlash mahoratini shakllantirish;
6. Xalqaro kasalliklar tasnifi (XKT-10)ga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllarini ambulator sharoitda erta tashxislash va davolash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;
7. Aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish, sog‘lom aholiga skrining o‘tkazish hamda bemorlarni dispanser nazoratiga olishni tashkillashtirishga o‘rgatish;
8. Bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;
9. Aholini sog‘lom guruhlariga ajratish, jadval asosida emlashni tashkil etish, bemorlarni dispanser kuzatuviga olishda tibbiy brigada faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali oilaviy shifokorlik amaliyotini yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish;
10. Davlat tibbiy sug‘urta tizimining birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari faoliyatiga ta’siri to‘g‘risida tushuncha berish;
11. Raqamlashtirish jarayonlarini, elektron sog‘liqni saqlash tizimlarini amaliy jihatdan tushunish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.
12. Oilaviy shifokorlik amaliyotida samarali antenatal parvarish, patronajning universal progressiv modelini, ona va bola salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish.

1.3. Ta’lim oluvchilar kontingenti:

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida faoliyat yuritayotgan oilaviy shifokorlar, shuningdek oilaviy shifokor mutaxassisligini egallashni istagan tor soha mutaxassislari, chet elda yashab, tibbiyot sohasida ishlayotgan va O‘zbekistonga kelib oilaviy shifokor sifatida ish faoliyatini davom ettirmoqchi bo‘lgan shifokorlar uchun mo‘ljallangan.

1.4. O‘quv dasturini o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyalari:

- Respublikada oilaviy shifokor faoliyatini tashkillashtirish mezonlarini bilish;
- Sog‘lom organizm faoliyati va salomatlikni ta‘minlovchi mexanizmlardagi qonuniyatlar haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- Inson organizmi patologiyasining asosiy qonuniyatlari, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, xavf omillari va organizm reaktivligi haqida bilimga ega bo‘lish;
- Odam hayot faoliyati davomida asosiy fiziologik jarayonlarning shakllanishi va boshqarilishini baholash va tushuntira olish;
- Inson organizmi va funksional sistemalaridagi yoshga bog‘liq xususiyatlarni baholash va tushuntira olish;
- Kasallikning umumiy masalalari: etiologiyasi, patogenezini, morfogenezini tushunish;
- Yallig‘lanish, destruktiv, immunopatologik, o‘sma, irsiy va boshqa etiopatogenezli kasalliklar rivojlanishidagi patologik jarayonlarni tahlil qila olish;
- Keng tarqalgan inson kasalliklarini oldini olishda medikamentoz va nomedikamentoz davolash usullarini qo‘llay olish;
- Medikamentoz davolashda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillaridan foydalanish;
- Oilaviy shifokor mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va yangilangan nazariy hamda amaliy bilimlarni egallashga intilish, uzluksiz ravishda malakasini oshirishga tayyor bo‘lish;
- O‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish, kasbga oid optimal qarorlarni qabul qila olish, kasallik kelib chiqishiga yaxlit yondashuv asosida sabab, sharoit va organizm holatlarini yosh va jinsga bog‘liq holda baholay olish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–88-sonli farmoniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi “Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–185 qaroriga muvofiq ishlab chiqildi.

Shuningdek, ushbu o‘quv dasturi tibbiy profilaktika xizmatiga bo‘lgan real ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, amaldagi standart va milliy klinik protokollar, isbotlangan tibbiyot tamoyillari asosida kasalliklarni tashxislash, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo‘llash, shuningdek sog‘liqni saqlash tizimida joriy etilayotgan yangi yondashuvlarni inobatga olgan holda, shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 1440 kredit (haftada 36 kredit, kuniga 6 kredit)

1.7. O‘qish shakli:

Kurs gibril tarzda o‘qitiladi.

Masofaviy – tipme.uz uzluksiz tibbiy ta’lim portali orqali platformada belgilangan vaqt oralig’ida o’tiladi;

Sayyor – kuniga 6 kredit; mashg’ulotlar soat 8:30 dan 13:30 gacha o’tkaziladi. Tushlik uchun 30 daqiqa ajratiladi.

1.8. Mashg’ulotlarni o’tish tartibi: Ushbu o’quv dasturi 4 ta modulga ajratilgan holda amalga oshirilib, 1440 kreditga mo’ljallangan. Har bir modul 360 kreditni tashkil etadi. O’quv jarayoni davomida modulning 50% tipme.uz uzluksiz tibbiy ta’lim portali orqali ONLAYN tarzda o’qitiladi. Keyingi 25%ni oilaviy shifokor asosiy ish joyidan ajralmagan holda olingan bilim va ko’nikmalarni amaliyotga tadbiq qilish bo’yicha amaliyot o’taydi. Keyingi 25% esa ta’lim oluvchi tibbiy talim muassasalarida offlayn tarzda (amaliy ko’nikmalarni to’liq o’zlashtirish uchun) amaliy mashg’ulotlar tarzida o’tkazadi. Ya’ni bitta modul 360 kreditdan iboratligi hisobga olinsa 180 kredit onlayn o’tish uchun, 90 kredit olingan bilim va ko’nikmalarni amaliyotga tadbiq qilish uchun, 90 kredit esa kafedralarda offlayn tarzdagi o’qishga sarf etiladi.

1.9. O’qish tugagandan so’ng beriladigan hujjat: O’quv kursining har bir modulini to’liq o’zlashtirib oraliq attestatsiyadan muvaffaqiyatli o’tgan shifokorlar modul tugatganligi to’g’risida, to’liq barcha modullarini o’zlashtirib yakuniy attestatsiyadan o’tgan tinglovchilarga “Oila salomatligi bo’yicha maxsus o’quv dasturi” asosida “Oilaviy shifokorlik” bo’yicha malaka oshirganlik (oilaviy shifokorlar uchun) yoki ixtisoslik olganligi (tor soha mutaxassislari uchun) to’g’risida TXKMRM tomonidan Davlat talablari namunasidagi guvohnoma taqdim etiladi.

REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta’lim (natijalari)dan so’ng tinglovchi kompetensiyasi: Ta’lim oluvchi “Oilaviy shifokorlik” mutaxassisligi bo’yicha ixtisoslashtirish va malaka oshirish o’quv dasturini to’liq o’zlashtirganidan so’ng quyidagi kompetensiya va malakalarga ega bo’ladi:

Malakaviy ko’nikmalar:

- Aholi o’rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik va sanitariya-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish;
- Kasalliklarning erta va yashirin shakllarini, xavf omillarini aniqlash maqsadida profilaktik ko’riklar va skrining tadbirlarini amalga oshirish;
- Shifokor ko’riklari va sog’lomlashtirish choralari orqali biriktirilgan hudud aholisi salomatligini dinamik kuzatib borish;
- Shoshilinch holatlar va o’tkir kasalliklarni o’z vaqtida aniqlash va birinchi tibbiy yordam ko’rsatish;
- Belgilangan tartibda bemorlarni kasalxonaga yotqizishni tashkil etish;
- Tibbiy ekspertiza o’tkazish;

- Davolash va rehabilitatsiya tadbirlarini malaka talablari asosida tashkil etish;
- Ko'krak suti bilan oziqlantirish, bola tarbiyasi, ovqatlanishi, maktabgacha va maktab ta'limi, kasbga yo'naltirish borasida oilaga maslahat berish;
- Antenatal parvarish, xavfsiz onalik, tug'ruqdan keyingi parvarish va kontrasepsiya masalalari bo'yicha maslahat yordamini "Onalar maktabi" doirasida tashkil etish;
- Sog'lom oilani shakllantirish, oilani rejalashtirish, kontrasepsiya, oila etikasi, psixologiyasi va gigienasi masalalari yuzasidan maslahat yordami ko'rsatish.

Kasbiy kompetensiya:

- Biriktirilgan aholiga eng ko'p uchraydigan kasalliklarni oldini olish va davolash bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatish;
- Aholi tibbiy madaniyatini oshirish, to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini singdirish va shakllantirish, shu jumladan o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, onalar va bolalar salomatligini muxofaza qilish, istalmagan homiladorlik oldini olish, oilani oqilona rejalashtirish, kontrasepsiya bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;
- Ayollarni homiladorlik va tug'ruqdan keyingi davrida nazorat qilish, ko'krak suti bilan oziqlantirishni targ'ib qilish. "Onalar maktabi" doirasida muntazam maslahat ishlarini olib borish;
- Kasallik o'ta og'ir va notipik ravishda kechayotgan holatlarda o'z vaqtida tibbiy konsultatsiya uyushtirish, bemorlar ko'rsatkichlariga asoslanib ixtisoslashgan tibbiy muassasalarga yo'llanma berish va yotqizish;
- Biriktirilgan hudud aholisiga, standartlarga muvofiq va o'zida mavjud jihozlar vositasida shifoxonagacha shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;
- Sanitariya-gigiena va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar majmuini tashkil qilish va o'tkazish: profilaktik emlashlar, biriktirilgan hudud va uy xo'jaliklarida sanitariya holatini umumiy nazorat qilish, yuqumli kasalliklar o'choqlarida o'zaro aloqada bo'lganlar orasida observatsiya tadbirlari;
- Ijtimoiy yordam xizmatchilari bilan birgalikda tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va yolg'izlar, keksalar, nogironlar, surunkali kasalliklar bilan kasallanganlarga patronaj xizmatini tashkil etish va nazoratini amalga oshirish;
- Surunkali noinfeksion kasalliklarni erta aniqlash uchun profilaktik va maqsadli tibbiy ko'riklarni o'tkazish, biriktirilgan aholi: bolalar, o'smirlar, tug'ish yoshidagi ayollar, surunkali kasalliklar bilan kasallanganlar, tug'ish ta'tilidagilar, dekretiv guruhlar o'rtasida Oilaviy dispanserizatsiya tadbirlarini o'tkazish;
- Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan noinfeksion va infeksiyon kasalliklar, jumladan, sil, teri tanosil kasalliklari (JYOYUK), havfli o'smalar, qandli diabet, OIV/OITS va giyohvandlik kasalliklariga qarshi kurashish bo'yicha davolash-profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish;
- Tuman DSENM v TTBlariga infeksiyalar, kasalliklar, zaharlanish va favqulodda holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berish;

- Tasdiqlangan qayd va hisobot shakllarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘ldirish.

**“OILA SALOMATLIGI BO‘YICHA MAXSUS O‘QUV DASTURI” asosida
“OILAVIY SHIFOKORLIK” mutaxassisligi bo‘yicha
Ixtisoslashtirish va malaka oshirish gibril o‘quv kursi**

**O‘QUV REJASI
(o‘qish muddati – 1440 kredit, 10 oylik)**

№	Modullar nomlanishi	Jami kreditlar soni	Nazariy kreditlari soni- Onlayn o‘qish	Amaliyot kreditlari soni		Attestatsiya
				Bevosita ish joyida	Markazda - offlayn o‘qish	
1	1-Modul: BTSYoMda jamoat salomatligi faoliyatini tashkil etish va baholash, me‘yoriy-xuquqiy asoslari. Pulmonologiya, kardiologiyada yangi direktiv yo‘nalishlar.	360	180	90	84	6
3	2-Modul: Oilaviy shifokorlik amaliyotida ona va bola salomatligini saqlashda zamonaviy yo‘nalishlar. Oilaviy shifokor amaliyotida endokrinologik kasalliklarni olib borish.	360	180	90	84	6
5	3-Modul: Asosiy yuqumli va yuqumli bo‘lmagan ichki kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashxislash, davolash, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga zamonaviy yondoshuvlar.	360	180	90	84	6
7	4-Modul: Xirurgiya, travmatologiya, shoshilinch holatlarda birlamchi sanitariya yordamini ko‘rsatishdagi zamonaviy usullar. LOR, oftalmologik, nefrologik va urologik, nevrologik, psixiatrik, kasalliklarni tashxislash va davolashga yangicha yondoshuv.	360	180	90	84	6
	Jami: kreditlar soni	1440	720	360	336	24
		100%	50%	25%	23,3%	1,7%

3. DASTUR MAZMUNI
“OILA SALOMATLIGI BO‘YICHA MAXSUS O‘QUV DASTURI” asosida
“OILAVIY SHIFOKORLIK” mutaxassisligi bo‘yicha
Ixtisoslashtirish va malaka oshirish gibril o‘quv kursi

O‘QUV REJASI
(o‘qish muddati – 1440 kredit, 10 oylik)

№	Modullar nomi	Jami kreditlar soni	Nazariy kreditlar soni- Onlayn o‘qish	Amaliyot kreditlari soni	
				Bevosita ish joyida	Markazda -offlayn o‘qish
1 Modul: BTSYoMda jamoat salomatligi faoliyatini tashkil etish va baholash, sohaning me’yoriy-huquqiy asoslari. Pulmonologiya, kardiologiyada yangi direktiv yo‘nalishlar.					
1	Jamoat salomatligini saqlash				
1.1	Birlamchi tibbiy yordam falsafasi. Olma-Ota deklaratsiyasi. JSST ta’rifi. Umumiy tibbiy amaliyot tamoyillari. BTSYo muassasalarining tuzilishi. Oilaviy poliklinika faoliyatini tashkil etish va ishlash tamoyillari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-88 son, PQ-185 son).	12	6	3	3
1.2	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 510-, 619-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining 175-, 97-sonli buyruqlari).	12	6	3	3
1.3	BTSYoM da Davlat tibbiy sug‘urta tizimini joriy qilish mexanizmlari (PQ-311). BTSYoMda Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi bilan tanishish, kasalliklar bo‘yicha tibbiy yordam ko‘rsatish va dori vositalari harakatini tartibga solish. Birlamchi bo‘g‘inga tadbiriq etilgan DMED elektron axborot tizimining barcha imkoniyatlari va undan samarali foydalanish usullari bilan tanishish.	12	6	3	3
1.4	Sog‘liqni saqlash birlamchi tizimida jamoat sog‘lig‘ini saqlash. Epidemiologiya, salomatlikni belgilovchi omillar: kasallik tarqalishi, kasallanish, o‘lim, tug‘ilish ko‘rsatkichlarini hisoblash. BTSYo muassasalari faoliyati ko‘rsatkichlari.	12	6	3	3
1.5	Aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. Jamiyat salomatligi asoslari. JSST PEN protokollari. Ratsional ovqatlanish tamoyillari. Oziqlanish holatini baholash. Ovqatlanish tartibi menyusini yaratish. Turli xil aholi guruhlari uchun ovqatlanish ratsioniga doir tavsiyalar.	12	6	3	3
1.6	Profilaktika turlari, ko‘rinishlari. Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar misolida birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi profilaktika. OPlarda profilaktika tadbirlarini o‘tkazish: emlash, profilaktik ko‘rik, skrining. Aholining profilaktik ko‘riklari, skrining dasturlardan o‘tkazish rejasini tuzish tartib qoidalari.	12	6	3	3
1.7	Samarali maslahat o‘tkazish ko‘nikmalari. Konsultatsiya modellari, konsultatsiya tuzilishi, “Konsultatsiya qilish qiyin bo‘lgan bemorlar”ga maslahat berish yo‘llari. To‘g‘ri maslahat berish, trening usullari va baholash yo‘llari. Rolli o‘yinlar, videolar va vaziyatli masalalarni tahlil qilish orqali maslahat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish. Konsultatsiya o‘tkazish: tayyorgarlik, o‘zaro ishonchni o‘rnatish. Bolalar, kattalar va qariyalarni klinik (obyektiv) tekshirish tamoyillari. Laborator va instrumental tekshirish usullarini tanlash, davolash, tor soha mutaxassisiga yuborish tamoyillari.	12	6	3	3
1.8	Shaxslararo muloqot (ShM). ShMning asosiy usullari va ko‘nikmalari. ShM ko‘nikmalarini baholash. Suhbatdosh qadr-	12	6	3	3

	qimmatini va dunyoqarashini baholash, verbal va noverbal muloqot tamoyillarini qo'llash qoidalar. Suhbatlashish ko'nikmalari: maqtash va rag'batlantirish, mulohaza yuritish va so'zlarini takrorlash, qaror qabul qilish va xulq-atvorni o'zgartirish, o'zaro munosabatni saqlash. Aholiga salomatlik bo'yicha axborot berish.				
	Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni	96	48	24	24
2.	Dalillarga asoslangan tibbiyot, konsultatsiya ko'nikmalari, shaxslararo muloqot, dori vositalarini ratsional qo'llash, laboratoriya ishi				
2.1	Dalillarga asoslangan tibbiyotga kirish. Epidemiologik tadqiqotlar turlari, dalillar darajalari piramidasi. Ilmiy maqolalarni tahlil qilish, tizimli ko'rib chiqish va meta-tahlillar; tadqiqot turini va dalillar darajasini aniqlash. Tibbiy yordam sifatini oshirish metodologiyasi: sog'liqni saqlashda sifat tushunchasi - asosiy tamoyillar va tushunchalar. Sifatni yaxshilash: standartlar va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.	12	6	3	3
2.2	Dori vositalarini ratsional ishlatish (DVRI). Ratsional davolash jarayoni. Dori vositasi va davanish turini tanlashda individual yondashuv. Bemordagi muammo turini aniqlash. Davolashning maqsad va vazifalarini to'g'ri aniqlash, dori vositasining maqbulligini tekshirish.	12	6	3	3
2.3	Laborator tekshiruvlar: Umumiy qon tahlili (klinik qon tekshiruv). Qon biokimyoviy tekshiruvlari. Siydik, najas, balg'am laborator tekshiruv usullari. Tekshiruv natijalarini tahlil qilish usullari.	12	6	3	3
2.4	Instrumental tekshiruvlar: UTT, rentgen, MRT, MSKT. Instrumental tekshiruvlarga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Tekshiruv natijalarini tahlil qilish.	12	6	3	3
2.5	Normal EKG tushunchasi. Normal EKGda tishchalar ta'rifi. Insonning yoshiga va tana tuzilishiga bogliq bo'lgan EKG ko'rinishlari.	12	6	3	3
	Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni	60	30	15	15
3	Pulmonologiyada yangi direktiv yo'nalishlar.				
3.1.	Yo'tal. O'tkir va surunkali bronxit, traxeit kasalliklarini tashxislash va davolash. O'tkir stenozli laringotraxeit, o'tkir obstruktiv bronxit, qaytalanuvchi obstruktiv bronxit kasalliklarini tashxislash. Pnevmoniyalarni tashxislash va oilaviy shifokor (OSh) taktikasi.	12	6	3	3
3.2.	Bolalardagi yo'tal. O'tkir va surunkali faringit, tonzillit, laringit, laringotraxeit, bronxiolit, bronxit kasalliklarini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
3.3.	Bolalardagi yo'tal. Pnevmoniya kasalligini tashxislash va oilaviy shifokor (OSh) taktikasi. O'tkir epiglotit va nafas yo'liga yot jism tushganda oilaviy shifokor (OSh) taktikasi.	12	6	3	3
3.4.	Xansirash. Bronxial astma kasalligini tashxislash va davolash, astmatik xuruj, I-II darajali surunkali o'pka - yurak yetishmovchiligi.	12	6	3	3
3.5.	Xansirash. SO'OK kasalligini tashxislash va davolash. Surunkali nafas yetishmovchiligini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
3.6.	Qon tupirish. O'pka sili. O'pka arteriyasi tromboemboliyasi, o'pkadagi o'sma kasalliklarini tashxislash va OSh taktikasi. O'pka yiringli kasalliklari: bronxoektatik kasallik, o'pka absessida OSh taktikasi. Pnevotoraks, gidrotoraksni, plevritni tashxislash.	12	6	3	3
	Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni	72	36	18	18
4	Kardiologiyada yangi direktiv yo'nalishlar.				
4.1.	Arterial gipertenziya sindromi. Essensial arterial gipertoniya kasalligi epidemiologiyasi, patogenezi, namoyon	12	6	3	3

	bo'lishi. Simptomatik arterial gipertoniya tasnifi, qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi. Essensial arterial gipertoniya xavf omillarini baholash, tashxisni to'g'ri shakllantirish qoidolari.				
4.2.	Arterial gipertoniyani davolash. Nomedikamentoz va medikamentoz davo turlari. Davolashda ishlatiluvchi guruh preparatlari xaqida to'liq ma'lumot. AG va komorbid holatlarni (QD, YuIK, SBK, xomiladorlik) OSh tomonidan olib borish taktikasi.	12	6	3	3
4.3.	Yurak sohasidagi nokoronarogen og'riqlar qiyosiy tashxisi (umurtqa pog'onasi osteoxondrozi, qobirg'alararo nevrалgiya, o'rab oluvchi temiratki, oshqozon yara kasalligi).	12	6	3	3
4.4.	Yurak sohasidagi o'tkir og'riqlar. YuIK, stabil zo'riqish stenokardiyasi, I-II (FS) funksional sinfini tashxislash va davolash. YuIK, stabil zo'riqish stenokardiyasi III-IV FS, nostabil stenokardiyada OSh taktikasi.	12	6	3	3
4.5.	Yurak sohasidagi o'tkir og'riqlar. O'tkir koronar sindrom, o'tkir miokard infarkti, o'pka arteriyasi tromboemboliyasi, aorta anevrizmasi kasalliklari qiyosiy tashxisi va shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish. Infarktdan keyingi kardioskleroz, yurak yoki tomirlar operatsiyasidan keyingi holatda OSh tomonidan bemorlarni olib borish taktikasi.	12	6	3	3
4.6.	Yurak sohasidagi og'riqlar. Yengil kechuvchi miokarditlarni (yurak yetishmovchiligi kuzatilmaganda) tashxislash va davolash. Perikardit, plevrit, miastenit qiyosiy tashxisi, EKG belgilari.	12	6	3	3
4.7.	Yurak sohasidagi og'riqlar. Yurakning orttirilgan va tug'ma nuqsonlari, Kavasaki kasalligida OSh taktikasi.	12	6	3	3
4.8.	Yurak sohasidagi og'riqlar. Kardiomiopatiyalar (gipertrofik, dilatatsion, restriktivni) tashxislash, EKG belgilari, OSh taktikasi.	12	6	3	3
4.9.	Yurak urib ketishi. Taxiaritmiyalar. Sinusli taxikardiya, ekstrasistoliyalar, bo'lmachalar fibrilyatsiyasi surunkali kechishi, ritm buzilishlarining qiyosiy tashxisi. EKG belgilari, davolash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
4.10.	Xushdan ketish. Bradikardiya. Yurak o'tkazuvchanligining buzilishi. Sinusli bradikardiya, AV blokada, qorinchalar ichi blokadalarini (Giss tutami blokadalarini) tashxislash. EKG belgilari, OSh taktikasi.	12	6	3	3
4.11.	Xansirash. SYuE. I – II darajali surunkali yurak yetishmovchiligini tashxislash va davolash. O'tkir yurak yetishmovchiligida birinchi yordam ko'rsatish. SYuEning og'ir darajasini tashxislash, OSh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		132	66	33	33
Modul bo'yicha jami kreditlar soni		360	180	90	90
Oraliq nazorat					
2 Modul: Oilaviy shifokorlik amaliyotida ona va bola salomatligini saqlashda zamonaviy yo'nalishlar. Oilaviy shifokor amaliyotida endokrinologik kasalliklarni olib borish.					
5	Oilaviy shifokor amaliyotida bolaning o'sish va rivojlanish monitoringini olib borish.				
5.1.	Bolaning o'sish va rivojlanish monitoringi: ko'rsatkichlar tahlili va izohi.	12	6	3	3
5.2.	Bolalar psixomotor rivojlanishini baholash. Denver shkalasi.	12	6	3	3
5.3.	Onaga bolaning ovqatlantirish va parvarishiga oid maslahatlarni berish. Ko'krak suti bilan oziqlantirish mexanizmi. Muvaffaqiyatli emizish siyosatini yurgizishning 10 qadami. Ko'krakka to'g'ri qo'yish, ko'krak bezini sog'ish, sut bezlarining holatini nazorat qilish, ko'krakdan voz kechish.	12	6	3	3
5.4.	Laktatsiyaning ko'payishi va relaktatsiya. Kam vaznli va bemor bolalarni ko'krak suti bilan emizishning afzalliklari. Fertil yoshidagi ayollarning salomatligi, ratsional ovqatlanishi	12	6	3	3

	va mehnat qilish qoidalari.				
5.5.	Qo'shimcha ovqatni kiritish qoidalari (vaqtlari). Qo'shimcha ovqatlanishni erta va kech kiritish oqibatlarini. 1 yoshgacha bo'lgan bolalarni ratsional ovqatlantirish.	12	6	3	3
5.6.	5 yoshgacha bo'lgan bolalarni ratsional ovqatlantirish. Onalarga bolalar ovqatlanish menyusini tuzish bo'yicha maslahatlar berish.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		72	36	18	18
6	Oilaviy shifokor amaliyotida neonatologiya va pediatriyada profilaktika, skrining, tashxislash va davolash				
6.1.	Bolalar ko'rigi va anamnez to'plashda o'ziga xosliklar. Bolalarni jismoniy va psixomotor rivojlanishini baholash. Universal progressiv patronaj modeli asosida bolalarni olib borish. Sog'lom bola parvarishi. Bola rivojlanish davrlari. SSV 420-sonli buyrug'i tahlili.	12	6	3	3
6.2.	1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqni olib borishda Osh taktikasi. Chaqaloq ko'rigi va uning parvarishi to'g'risida onaga maslahat berish. Bu davrdagi eng ko'p uchraydigan patologik holatlar (fiziologik va patologik sariqlik, chaqaloq gemolitik kasalligi, o't yo'llari rivojlanish anomaliyalari). Chaqaloqlar tug'ma anomaliyalari va Osh taktikasi.	12	6	3	3
6.3.	1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqni olib borishda Osh taktikasi. Chala tug'ilganlik, chaqaloqlarda chegara holatlari (chaqaloqlar eritemasi, fiziologik mastit, fiziologik tana vaznining yo'qotilishi, chaqaloqlar jinsiy krizlari). Tug'ma gipotireoz, bolalarda qayt qilish sindromi, fenilketonuriya kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
6.4.	1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqni olib borishda Osh taktikasi. Bolaning rivojlanish davrlari. Vaktsinatsiya taqvimini (SanQvaM). Vaktsinatsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.	12	6	3	3
6.5.	1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqni olib borishda Osh taktikasi. Bu davrdagi eng ko'p uchraydigan patologik holatlarni (son suyagi boshchasining tug'ma chiqishi, tishlarning yorishi, bolalarda qayt qilish sindromi, fimoz, parafimoz, raxit, o'ta faol go'dak, perinatal ensefalopatiya, harakatning buzilishi) tashxislash va davolash. Ko'p uchraydigan irsiy kasalliklarni tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
6.6.	2-5 yoshgacha bo'lgan bolalarni olib borishda Osh taktikasi. Bu davrdagi eng ko'p uchraydigan patologik holatlarni (bolalar ekzemasini, bolalar dermatitlari, yuqori va pastki nafas yo'llari yallig'lanishi kasalliklarini tashxislash va davolash. Kam vaznli bolalar va psixomotor rivojlanishdan orqada qolish holatlarida Osh taktikasi. 2-5 yoshdagi bolalarni shikastlanishlardan saqlanishi, shaxsiy gigiena qoidalari rioya qilinishi to'g'risida onalarga o'rgatish.	12	6	3	3
6.7.	5-12 yoshgacha bo'lgan bolalarni olib borishda Osh taktikasi. Bolalar ko'rigi va anamnez to'plashda o'ziga xosliklar. Bu davrdagi eng ko'p uchraydigan patologik holatlarni (xulq-atvorning buzilishi, oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik, nogiron bolalar, enurez, o'ta faol bolalar) tashxislash va davolash.	12	6	3	3
6.8.	12-16 yoshgacha bo'lgan bolalarni olib borishda Osh taktikasi. Jinsiy yetilish davri. O'smirlar gigienasi. O'smirlik davri bosqichlari, ko'rik o'tkazish va anamnez to'plashda o'ziga xosliklar. Bu davrdagi eng ko'p uchraydigan patologik xolatlarni (profilaktika printsiplari, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, xulq-atvorning buzilishi, tengdoshlari va otasonasi bilan munosabatlari, o'qishdagi muvaffaqiyatlar, baxtsiz hodisalar, psixofaol moddalar iste'moli, zararli odatlar, depressiya, suitsid) tashxislash, Osh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		96	48	24	24
7	Oilaviy shifokorlik amaliyotida reproduktiv salomatlik,				

	akusherlik va ginekologiyada zamonaviy yo'nalishlar.				
7.1	O'zbekistonda reproduktiv salomatlik. Maslahat berish asoslari. Kontratsepsiya usullari tasnifi. Gormonal kontratsepsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Tug'ruqdani keyingi ayollar va o'smirlar kontratsepsiyasi.	12	6	3	3
7.2	Kontratsepsiya usullari: Bachadon ichi vositalari (BIV), to'siqli usullar, kontratsepsiyaning tabiiy usullari, laktatsion amenoreya, ixtiyoriy jarrohlik sterilizatsiyasi, shoshilinch kontratsepsiya. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.	12	6	3	3
7.3	Xavfsiz onalik strategiyasi. SSV №195 sonli buyrug'i taxlili. Effektiv antenatal parvarish asoslari. Homiladorlikka tayyorlanish. Tug'ish yoshidagi ekstragenital kasalliklari bo'lgan ayollarni tashxislash va davolash. Fiziologik homiladorlik. Homiladorlik davridagi tekshiruv va skrining. Gravidogrammani yuritish qoidalari.	12	6	3	3
7.4	Homiladorlik vaqtida tanadagi o'zgarishlar. Homiladorlik simptomlari (ko'ngil aynishi, qusish, zarda kuyishi, qindan ajralma kelishi) kuzatilganda Osh taktikasi. Homilador ayollarga ovqatlanish, hayot tarzini to'g'ri yuritishiga doir maslahatlar berish. Akusherlik ko'rigi (Leopold-Levitskiy usuli).	12	6	3	3
7.5	Homiladorlik davridagi patologik holatlar. Gestatsion gipertenziya, preeklampsiya, eklampsiya, gestatsion diabet, homiladorlikda rezus-konflikt, kamqonlik kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
7.6	Tug'ruqdan keyingi davr. Tug'ruqdan keyingi isitma holatlarida (mastit, qindan ajralma kelishi, infeksiya) Osh taktikasi. Tug'ruqdan keyingi qon ketish (yo'ldosh qoldiqlari) holatlarini tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
7.7	Ko'p uchraydigan ginekologik simptomlar: qindan ajralma kelishi, qorin pastki qismidagi og'riq, vulvadagi qichishishda Osh taktikasi. Vaginitlar tashxisi va davolash usullari.	12	6	3	3
7.8	Onkoginekologiya: Ayollar jinsiy a'zolari xavfsiz va xavfli o'sma kasalliklarini (bachadon bo'yni va ko'krak bezi, tuxumdon) erta tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
7.9	Disfunktsional bachadon qon ketishlari. Hayz siklining buzilishida (menorragiya, amenoreya) Osh taktikasi. Hayz ko'rishdan oldingi sindromda Osh taktikasi.	12	6	3	3
7.10	Menopauza, klimakterik davr. Klimakterik sindromni tashxislash va davolash. Gormon o'rindosh terapiya.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		120	60	30	30
8	Oilaviy shifokor amaliyotida endokrinologik kasalliklarni olib borish.				
8.1	Ortiqcha vazn. Semirish va tana vaznini yo'qotish. Semizlik va ozg'inlik turlari va tiplari, qiyosiy tashxislash. Metabolik sindrom. Ekzogen-konstitutsional semirish 1 darajasini tashxislash va davolash. Tana vaznini yo'qotishda Osh taktikasi.	12	6	3	3
8.2	Poliuriya, polidipsiya. Qandli diabet 1-turini erta tashxislash, dispanser kuzatuvi. Asoratlarni oldini olish (diabetik koma). Gestatsion diabet, qandsiz diabet kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
8.3	Poliuriya, polidipsiya. Qandli diabet 2-turini erta tashxislash, skrining, qiyosiy tashxislash va davolash. Dispanser kuzatuvi. Poliklinika sharoitida diabetlar maktabini tashkil etib, profilaktika tadbirlarini to'g'ri amalga oshirish orqali QDning o'tkir va surunkali asoratlarni oldini olish.	12	6	3	3
8.4	Qandli diabet 2-turining o'tkir va surunkali asoratlari. QD O'tkir asoratlarni (gipoglikemiya, gipoglikemik koma, ketoatsidoz) tashxislash va Osh taktikasi. Surunkali asoratlari (diabetik retinopatiya, nefropatiya, neyropatiya, diabetik to'piq) profilaktikasi, tashxislash va davolash.	12	6	3	3
8.5	Qalqonsimon bez kasalliklari. Diffuz buqoq, endemik buqoq, tireotoksik bo'qoq, gipertireoz, gipotireoz	12	6	3	3

	kasalliklarini qiyosiy tashxislash, davolashda OSh taktikasi. Tireoidit kasalligini tashxislash.				
8.6	Moddalar almashinuvi va ichki sekretiya bezlari funksiyalari buzilishi. Gipo- va avitaminozlar, osteoporoz (yengil forma) kasalliklarini tashxislash va davolash. Akromegaliya, nanizm, Itsengo-Kushinga kasalligi, aldosteroma, feoxromotsitoma kasalliklarini tashxislash va OSh taktikasi. Buyrak usti bezi etishmovchiligi. OSh tomonidan tashxislash va olib borish taktikasi. Surunkali kasalliklari bor bemorlarda prednizolon preparatini doimiy qabul qilishi yoki noto'g'ri qabul qilishi natijasida kelib chiquvchi buyrak usti bezi etishmovchiligini erta aniqlash.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		72	38	18	18
Modul bo'yicha jami kreditlar soni		360	180	90	90
Oraliq nazorat					
3 Modul: Asosiy yuqumli va yuqumli bo'lmagan ichki kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashxislash, davolash, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga zamonaviy yondoshuvlar.					
9	Oilaviy shifokorlik amaliyotida infeksiyon kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashxislash va davolash.				
9.1.	Havo-tomchi yo'li orqali yuquvchi infeksiyon kasalliklar. Epidemiologiya, infeksiyon jarayon bo'g'inlari. O'RVİ, gripp, epidemik parotit, ko'kyo'tal, parakoklyush, difteriya, poliomielit, meningit kasalliklarini tashxislash va davolash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
9.2.	Bolalardagi isitma va toshmalar. Bolalar ko'rigining o'ziga xos tomonlari. Qizamiq, qizilcha, suvchechak, skarlatina kasalliklarini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
9.3.	Bolalardagi isitma va toshmalar. Infeksiyon mononukleoz Enterovirusli vezikulyar stomatit, bolalar rozeolasi kasalliklarida OSh taktikasi.	12	6	3	3
9.4.	Isitma. Oziq-ovqatdan zaharlanish va bakterial toksinli toksik infeksiyalarni olib borishda Osh taktikasi.	12	6	3	3
9.5.	Isitma. Bemor ko'rigidagi o'ziga xos tomonlar. Isitma egriliklari. Ichak infeksiyalari (virusli, parazitlar), dizenteriya, salmonellez, qorin tifi, paratif, vabo, botulizm, brusellez bilan bemorlarni olib borish taktikasi.	12	6	3	3
9.6.	Isitma. Bemor ko'rigidagi o'ziga xos tomonlar. Sababi noaniq isitma. Ichak infeksiyalari paratif, vabo, botulizm, brusellez bilan bemorlarni olib borish taktikasi.	12	6	3	3
9.7.	Isitma. Bemor ko'rigidagi o'ziga xos tomonlar. Gerpetik infeksiya, saramas (roja), tugunli eritema kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
9.8.	Gelmintozlarni tashxislash va davolash. Osh amaliyotida toksoplazmoz, exinokokkoz, malyariya, quturish, o'lat, qoqshol kasalliklarini qiyosiy tashxisi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		96	48	24	24
10	Oilaviy shifokorlik amaliyotida gastroenterologik kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashxislash va davolash.				
10.1.	Qorindagi og'riq. Dispepsik buzilishlarda qiyosiy tashxislash. Ezofagit, GERK, oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalligini (asoratsiz) tashxislash va davolash. Divertikulit. Oshqozonda operatsiyadan keyingi chandiq kasalligi (pilorostenoz), pilorospazm, yara kasalligi asoratlarini tashxislash va OSh taktikasi. Oshqozon ichak trakti funksional buzilishlarini tashxislash va davolash. Nospesifik yarali kolit, Kron kasalligi, mukovissidoz, seliakiya kasalliklarida qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
10.2.	Diareya/qabziyat. Diareya turlari, tashxislash va davolash. Surunkali enterokolit tashxislash va davolash. Noinfeksiyon diareyada, malabsorbsiya sindromida OSh taktikasi. Ichak ta'sirlanish sindromi tashxisi va davolash. Oshqozon-ichak yo'li parazitlar invazyalari tashxisi va davolash usullari.	12	6	3	3

	Girshprung kasalligini erta tashxislash va OSh taktikasi.				
10.3.	Sariqlik. O'tkir va surunkali gepatitlar qiyosiy tashxisi. Surunkali noinfekcion gepatitlarni tashxislash va davolash. Surunkali xoletsistit, o't yo'llari diskineziyasi, xoletsistoektomiyadan keyingi sidrom, surunkali pankreatit kasalliklarini tashxislash va davolash. Ovqat allergiyasi, ekzogen gipo- va avitaminozlarni davolash taktikasi. Vilson Konovalov kasalligida OSh taktikasi.	12	6	3	3
10.4.	Sariqlik. O'tkir va surunkali gepatitlar qiyosiy tashxisi. Surunkali infeksiyon gepatitlarni tashxislash va davolash. Gepatit A, B, C, D kasalliklarining o'ziga xos kechishi.	12	6	3	3
10.5.	Qorindagi o'tkir og'riq. O'tkir xoletsistitda, o't-tosh kasalligi xurujida, o'tkir pankreatitda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir qorin sindromi bilan namoyon bo'luvchi xirurgik kasalliklarda (appenditsit, ichak tutilish sindromi, mezenterial tomirlar trombozi, aorta anevrizmasi) qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
10.6.	Qon qayt qilish va oshqozon ichak yo'li (OIY)dan qon ketishi. Jigar sirrozi, oshqozon va 12 b.i. yara kasalliklari asoratlarini tashxislash va birinchi yordam ko'rsatish. Gemorroy, orqa teshik yorig'idan qon ketishini tashxislash, OSh taktikasi. OIY a'zolari o'sma (qizilo'ngach raki, oshqozon raki, to'g'ri ichak raki) kasalliklarini erta tashxislash, OSh taktikasi. Qorin bo'shlig'i operatsiyalaridan keyingi davrida bemorlarni OSh tomonidan olib borish taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		72	36	18	18
11	Oilaviy shifokorlik amaliyotida gematologik va onkologik kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashxislash va davolash.				
11.1.	Kamqonlik. Tasnifi, epidemiologiyasi va qiyosiy tashxislash. Bolalarda, ayollarda, homiladorlarda va qariyalarda temir yetishmovchiligi anemiyasi profilaktikasi va davolash. Gemogramma tahlili. Kamqonlikning boshqa turlari (gemolitik, surunkali kaslliklardan keyin rivojlanuvchi, vitamin B12 yetishmovchiligi, folat kislota yetishmovchiligi). Gemogramma tahlili.	12	6	3	3
11.2.	Gemablazozlar. Leykozlar, qon onkologik kasalliklarni ambulator sharoitda erta tashxislash qoidalari. Leykozlar tasnifi, klinik namoyon, gemogramma tahlili bo'lishi va Osh taktikasi. Ambulator sharoitda bolalar va o'smirlarda onkogematologik kasalliklar skriningini o'tkazish.	12	6	3	3
11.3.	Gemablazozlar. Limfomalarni ambulator sharoitda erta tashxislash qoidalari. Limfomalar tasnifi, klinik namoyon bo'lishi va Osh taktikasi. Ambulator sharoitda bolalar va o'smirlarda onkogematologik kasalliklar skriningini o'tkazish. Limfoma kasalligida gemogramma tahlili. Trombotsitopeniya va gemofiliya kasalliklari tashxisi va Osh taktikasi.	12	6	3	3
11.4.	OP/OshP sharoitida onkologik kasalliklarni skriningi va ularni erta aniqlash usullari. Oshqozon-ichak tizimi va o'pka onkologik kasalliklari qiyosiy tashxisi va Osh taktikasi. Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarni davolash taktikasi (og'riqni davolash, operatsiyadan keyingi asoratlar).	12	6	3	3
11.5.	OP/OshP sharoitida ko'krak, bachadon bo'yni va prostata saratonini erta aniqlash. Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarni davolash taktikasi (og'riqni davolash, operatsiyadan keyingi asoratlar).	12	6	3	3
11.6.	BTSYoMda bolalarda uchraydigan o'sma kasalliklarini erta aniqlash usullari. Burun-halqum raki, so'lak bezlari, suyak to'qimasi xavfli o'smalari, yumshoq to'qimalar sarkomasi, nefroblastoma, retinoblastoma, neyroblastoma qiyosiy tashxisi va Osh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		72	36	18	18
12	Oilaviy shifokorlik amaliyotida revmatologik kasalliklar				

	profilaktikasi, skriningi, tashxislash va davolash.				
12.1.	Artralgiya va artritlar. Qo'ldagi og'riqlar qiyosiy tashxisi: karpal tunnel sindromi. Revmatik isitma, yurakning surunkali revmatik kasalligi va revmatoid artrit kasalliklarini tashxislash, davolash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
12.2.	Artralgiya va artritlar. Oyoqdagi og'riqlar qiyosiy tashxisi: reaktiv artritlar, Reyter kasalligi, podagra kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
12.3.	Bo'yin, orqa va bel sohasidagi og'riqlar qiyosiy tashxisi. Umurtqa pog'onasi kasalliklari: osteoxondropatiya, osteoxondroz kasalliklarini tashxislash davolash. Bexterev kasalligida	12	6	3	3
12.4	Biriktiruvchi to'qima tizimli kasalliklarini qiyosiy tashxislash. Tizimli qizil yugurik, tizimli sklerodermiya, dermatomiozit, tizimli vaskulitlar, Shegren sindromi tashxislash tamoyillari va Osh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		48	24	12	12
13	Oilaviy shifokorlik amaliyotida dermatovenerologik kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashxislash va davolash.				
13.1.	Toshmalar. Teri patologik elementlari. Terining infeksiyon kasalliklari (impetigo, saramas, teri va yotoq yaralar, tanosil a'zolari yaralari) qiyosiy tashxisi va davolash. Husnbuzar turlari qiyosiy tashxisi va davolash.	12	6	3	3
13.2.	Terining parazitlar kasalliklari pedikulyoz, qichima qiyosiy tashxisi va davolash. Terining xajmli hosilalarini (so'gal, lipoma, rak) tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
13.3.	Toshma va qichishish. Eshak yemi, pedikulyoz, qichima kasalliklari qiyosiy tashxisi va davolash. Qichishish bilan kechuvchi dermatozlar: ekzema, dermatitlarni (kontaktli, seboreyali, neyrodermit) tashxislash va davolashda Osh taktikasi.	12	6	3	3
13.4	Toshmalar. Psoriaz, temiratki (oddiy, yaltiroq, follikulyar), o'choqli alopesiya kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi. Terining zamburug'li kasalliklari: dermatofitiya, kandidozlarni tashxislash va Osh taktikasi. Teri pigmentatsiyasining buzilishi: nevus, melanomada Osh taktikasi.	12	6	3	3
13.5.	Jinsiy yo'l orqali yuqadigan infeksiyalar (so'zak, zaxm, trixomoniaz, kandidoz, xlamidioz, genital herpes) qiyosiy tashxisi va Osh taktikasi. Balanopostit kasalligida Osh taktikasi.	12	6	3	3
13.6.	OIV/OITS. OIV infeksiyasi epidemiologiyasi, etilologiya va patogenezi. Laborator tashxislash. Bemorlarga testgacha va testdan keyin maslahat berish. OIV infeksiyasining onadan bolaga o'tishini oldini olish profilaktikasi. Bolalarla OIV infeksiyasining o'ziga xos kechishi. OIV infeksiyaning boshqa kasalliklar bilan birga kechishi, davolash prinsiplari.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		72	36	18	18
Modul bo'yicha jami kreditlar soni		360	180	90	90
Oraliq nazorat					
4 Modul: Xirurgiya, travmatologiya, shoshilinch holatlarda, LOR va oftalmolo gik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar. Oilaviy shifokor amaliyotida nevrologik, psixiatrik, nefrologik va urologik kasalliklarni tashxislash va davolashga yangicha yondoshuv.					
14	Otorinolaringologik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar.				
14.1.	Quloqdagi og'riq. LOR kasalligi bor bemorlar ko'rigi va tekshiruvdagi o'ziga xoslik. Quloqdan ajralma kelishi. O'tkir va surunkali tashqi va o'rta asoratsiz otiti tashxislash va davolash. Tashqi eshitish yo'lidagi yot jism, serali tiqinni tashxislash va davolash. Nog'ora pardasi yirtilishini tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
14.2.	Eshitishning buzilishi, karlik. Neyrosensor va konduktiv	12	6	3	3

	karlikni qiyosiy tashxislash. Koxlear neyrit, otoskleroz, labirintit, Mener kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi.				
14.3.	Burun bitishi. Burundan ajralma kelishi. O'tkir va surunkali rinitlar. Gipertrofik, atrofik, vazomotor rinitlarni tashxislash. O'tkir va surunkali sinusitlar: gaymorit, frontit, etmoidit, sfenoidit, burun to'sig'ining qiyshiqqligi kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi. Burundan qon ketish holatlarida (yot jism, shikastlanish, tomirlar yorilishi) birinchi yordam ko'rsatish texnikasi.	12	6	3	3
14.4.	Tomoqdagi og'riq. O'tkir va surunkali faringit va asoratsiz tonzillit, stenozsiz laringit kasalliklarini tashxislash va davolash. Bolalardagi adenoid, paratonzillar xo'ppoz (abscess), o'tkir epiglotit, difteriya kasalliklarini tashxislash va Osh taktikasi. LOR (quloq, tomoq, burun) a'zolarida xavfli va xavfsiz o'smalarni tashxislash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		48	24	12	12
15	Oftalmologik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar.				
15.1.	Ko'zdan ajralma kelishi. Qizil ko'z simptomi. O'tkir va surunkali kon'yunktivit kasalligini (bakterial, virusli, allergik) qiyosiy tashxislash va davolash. Blefarit, govmichcha kasalliklarini tashxislash va davolash. Ko'zning shikastlanishi va kuyishida birinchi yordam ko'rsatish va OSh taktikasi.	12	6	3	3
15.2.	Ko'zdagi og'riq. Glaukoma, episklerit, sklerit, uveit, keratit kasalliklarini tashxislash va OSh taktikasi. Qovoqning teskari bo'lib qolishi (entropion), xalyazion, qovoqning xo'ppoz (abscessi) kasalliklarini tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
15.3.	Ko'rishning buzilishi. Miopiya, gipermetropiya, presbiopiya tashxislash va davolash. G'aylik, bolalardagi yashirin g'aylikni aniqlash testi. Katarakta kasalligini tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
15.4.	Ko'z yoshi oqishi. Ko'rishning buzilishi. Bolalarda ko'z yoshi chiqaruv yo'lining tiqilib qolishi, dakriotsistit, dakrioadenit kasalliklarini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		48	24	12	12
16	Oilaviy shifokor amaliyotida nevrologik kasalliklarni tashxislash va davolashga yangicha yondoshuv.				
16.1.	Bosh og'rig'i. Osh amaliyotida nevrologik ko'rik o'tkazish. Bosh miya nervlari funksiyalarini baholash. Bosh og'rig'ida qiyosiy tashxis o'tkazish. Migren, distsirkulyator ensefalopatiya, zo'riqish oqibatida yuzaga keladigan bosh og'rig'i kasalliklarini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
16.2.	Bosh aylanishi. Labirintit va Menera sindromini qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi. Bosh miya qon tomir kasalliklari: Tranzitor ishemik xuruj, miya qon aylanishining o'tkir buzilishlari (insult), ensefalopatiyaning boshqa turlarini tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
16.3.	Talvasa sindromi va tremor. Epilepsiya va boshqa talvasa holatlarining qiyosiy tashxisi. Parkinson kasalligini tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
16.4	Mushak kuchsizligi, paresteziya. Periferik neyrit, neyropatiya, neyralgiya, umurtqalararo disk churrasi kasalliklarini tashxislash va davolash. Nerv-mushak kasalliklari: miopatiya, miotoniya, polimioz, miasteniya kasalliklarini qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		48	24	12	12
17	Oilaviy shifokor amaliyotida psixiatrik kasalliklarni tashxislash va davolashga yangicha yondoshuv.				
17.1.	Bemorlarni psixik statusini baholash. Osh amaliyotida ko'p uchraydigan ruhiy holat buzilishlari. Depressiyani tashxislash va davolash. O'zini -o'zi jarohatlash (suitsid). Suitsid va stress oqibatida kelib chiquvchi ruhiy buzilishlarni zamonaviy tashxislash mezonlari.	12	6	3	3

17.2.	Fikrlashning buzilishi. Psixozlar va psixopatiyalarni qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi. Bipolyar buzilishni tashxislash va OSh taktikasi. Nevrozlar qiyosiy tashxisi va OSh taktikasi. Tashvishli holatlar - maniya, fobiyalarni qiyosiy tashxislash. Psixosomatik o'zgarishlar, shaxsning chegara holatlarini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
17.3.	Bolalik va o'smirlilik yoshidagi ruhiy va xulqiy buzilishlar. Xulq bilan bog'liq muammolar. Diqqat tanqisligi sindromi va giperfaol bola. Psixofaol moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq ruhiy buzilishlar. Alkogolizm, toksikomaniya va narkomaniya. Narkologik kasalliklardagi patologik moyillik. Abstinent sindromi, tolerantlik.	12	6	3	3
17.4	Xotira pasayishi. Dementsiyani ambulator sharoitda xalqaro va mahalliy standartlar asosida davolash, ularga ambulator sharoitda OSh tomonidan tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatish. Deliriy, Altsgeymer kasalligida OSh taktikasi. Oligofreniya, autizm kasalliklarini tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		48	24	12	12
18	Oilaviy shifokor amaliyotida nefrologik va urologik kasalliklarni tashxislash va davolashga yangicha yondoshuv.				
18.1.	Siydikdagi o'zgarishlar. Nefrologik bemorlar tekshiruvining o'ziga xos tomonlari. Siydik chiqaruv yo'llari infeksiyalari: simptomsiz bakteruriya, uretrit, sistit, pielonefrit kasalliklarini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
18.2.	Siydikdagi o'zgarishlar. O'tkir va surunkali glomerulonefrit, siydik tanosil yo'llari sili, buyraklar polikistozi kasalliklarini qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi. Siydik-tosh kasalligi, buyrak kolikasida birinchi yordam ko'rsatish. Surunkali buyrak etishmovchiligini tashxislash, klinikasi va OSh taktikasi. Gemodializga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.	12	6	3	3
18.3.	Siydik ajralishining buzilishi. Prostatit, prostata adenomasi, prostata bezi raki kasalliklarini tashxislash va OSh taktikasi. Enurez kasalligini tashxislash va davolash. O'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligini tashxislash va OSh taktikasi.	12	6	3	3
18.4.	Moyakdagi og'riq. Moyaklar va urug' yo'lining vodyankasi, kriptorxizm, fimoza va parafimoz, balanit, balanopostit, moyaklarning va urug' yo'lining buralib qolishi kasalliklarini tashxislash va OSh taktikasi. Varikotsele, epididimoorxit kechishida OSh taktikasi.	12	6	3	3
Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni		48	24	12	12
19	Xirurgik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar.				
19.1.	BTSYoMlarida xirurgik yordamni tashkillishtirish. Kesilgan va ezilgan yaralarda OSh taktikasi. Teri hamda teri osti yog' kletchatkasining yuzaki kesilgan va shikastlangan yaralarida OSh taktikasi. Jarrohlik boylamini qo'yish va olish. Yaralarga birlamchi va ikkilamchi jarrohlik qayta ishlovini berish, yaralarni bog'lash qoidalari.	12	6	3	3
19.2.	Terining yiringli kasalliklari: furunkul, panarititsiy, paronixiy, o'sib etga kirgan tirnoq, flegmona, yotoq yaralari, mastit, teri osti kletchatkasining katta bo'lmagan yiringli yaralari kasalliklarini tashxislash va davolash.	12	6	3	3
19.3.	Kuyish va sovuq olganda OSh taktikasi. I-II darajali kuyishlar (mahalliy), I-II darajadagi sovuq olishda (lokal-mahalliy) davolash. Hayvonlar tishlaganidan so'ng, uncha katta bo'lmagan yaralarda OSh taktikasi. Trofik yaralar, varikoz kasalliklari, flebit, tromboflebit kasalliklarini tashxislash, davolash va Osh taktikasi.	12	6	3	3
19.4.	O'tkir qorin. Qorinning o'tkir xirurgik kasalliklarini qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi. Orqa chiqaruv teshigi yorilishi, bavosil yengil darajasini tashxislash va davolash. Proktit, paraproktit kasalliklarida OSh taktikasi. Jarrohlik amaliyotidan keyingi (boshdagi, ko'krak qafasidagi, qorin	12	6	3	3

	bo'shlig'idagi, oyoq amputatsiyasi, ko'krak bezidagi) davrda bemorlarni uy sharoitida olib borish taktikasi.				
	Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni	48	24	12	12
20	Travmatologik va ortopedik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar.				
20.1.	Lat yeyish, pay cho'zilishi, pay uzilishida, bo'g'im chiqishi va suyak sinishlarida OSh taktikasi. Tendovaginit, bursit, mioziti, sinovitlarda tashxis qo'yish va davolash. Balandlikdan yiqilganda, turli xil shikastlanishlarda OSh taktikasi. Uzoq ezilish sindromida birinchi yordam ko'rsatish va OSh taktikasi.	12	6	3	3
20.2.	Bolalardagi yassioyoqlik va maymoqlikni tashxislash va davolash. Harakat-tayanch apparatining tug'ma deformatsiyalari, chanoq-son bo'g'imi displaziyasini tashxislash va OSh taktikasi. Skoliozni tashxislash va davolash.	12	6	3	3
	Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni	24	12	6	6
21	Shoshilinch holatlarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar.				
21.1	Shoshilinch tibbiy yordam sikli bilan tanishtirish. OPlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini tashkil etish. OSh amaliyotida tez-tez uchraydigan shoshilinch holatlar: talvasalar, o'tkir nafas etishmovchiligi, astmatik statusda OSh taktikasi.	12	6	3	3
21.2	OSh amaliyotida tez-tez uchraydigan shoshilinch holatlar: ko'krak sohasidagi o'tkir og'riq (miokard infarkti), gipertonik kriz, buyrak va o't sanchig'i, gipoglikemik va ketoatsidotik koma. OSh taktikasi.	12	6	3	3
21.3	O'pka-yurak reanimatsiyasi. Hushsiz bemor. Glazgo shkalasi. Shoshilinch yordam ko'rsatish, statsionar davoga yo'naltirish. Bolalarda o'pka-yurak reanimatsiyasi. Bolalardagi shoshilinch xolatlar: moyakning buralishi, yot jism (burun, quloq, nafas olish yo'llarida), ichak invaginatsiyasi, epiglotit. OSh taktikasi.	12	6	3	3
21.4	Shok holatida OSh taktikasi: septik shok, elektr zarbasidan keyingi shikastlanish, anafilaktik shok, gipovolemik shok (qon ketishdan keyingi). Qon ketishining turlari va ularni to'xtatish yo'llari. Shoshilinch yordam ko'rsatish. OSh taktikasi. Zaharlanish, zaharli xayvon va hasharotlarning chaqishi, osilish, gipo - va gipertermik holatlar, cho'kishda birinchi yordam ko'rsatish va OSh taktikasi.	12	6	3	3
	Yo'nalish bo'yicha kreditlar soni	48	24	12	12
	Modul bo'yicha jami kreditlar soni	360	180	90	90
Oraliq nazorat					
Modullar yakuni. Yakuniy nazorat					
Platformada onlayn ta'lim		120 kun		720 kredit	
OP va OShPlarda mustaqil amaliyot		60 kun		360 kredit	
Kafedrada offlayn ta'lim		60 kun		360 kredit	
Dastur uchun ajratilgan umumiy kredit		240 kun		1440 dit	

O'QUV MODULLARI TASNIFI

1 Modul: BTSYoMda jamoat salomatligi faoliyatini tashkil etish va baholash, me'yoriy-huquqiy asoslari. Pulmonologiya, kardiologiyada yangi direktiv yo'nalishlar.

O'quv moduliga ajratilgan kredit: 360 kredit (Nazariy bilim kreditlari soni, onlayn o'qish - 180, amaliyot kreditlari soni – 180, ulardan bevosita ish joyida - 90, markazda offlayn o'qish - 90);

Tinglovchi kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim va ko'nikmalar:

O'quv moduli mazmuni:

Sog'liqni saqlash tizimiga oid Prezident Qarorlari va Farmonlari, SSV buyruqlari. BTSYoMda profilaktika, davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirishga yangi sug'urta tizimini tadbiq qilish. Ushbu tizimga yondoshuv, yo'nalishlar va me'yoriy xujjatlar. Tizimda ishlaydigan DMED dasturida effektiv ishlash. Birlamchi tibbiy xizmat falsafasi. Oilaviy shifokorlik amaliyoti mezonlari. BTSYoM tuzilmasi. OP tuzilmasi bilan tanishish, bemorlar qabulini namoyish etish. Birlamchi tibbiy tizimda Oilaviy shifokorning roli va funksional vazifalari. Aholi tibbiy-profilaktik ko'rigi va skrining chora tadbirlarini tashkillashtirish. oilaviy poliklinikalarda xujjatlarni yuritilishi. Jamiyat salomatligini saqlash. Dalillarga tayangan tibbiyot. Epidemiologik izlanishlar turlari. Isbotlanganlik bosqichlari piramidasi. Personal davo muolajasini buyurish. Bemordagi tibbiy muammolarni aniqlash. Davolash maqsadi va vazifasini belgilash.

JSSTning arterial gipertoniya (yuqumli bo'lmagan kasalliklar) bo'yicha klinik protokollar, standartlar asosida diagnostika, davolash, profilaktika asoslarini OP va OShPlarda joriy qilish. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini profilaktikasi, skriningi, tashhislash va davolashning zamonaviy usullari.

JSSTning bronxial astma va o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi va boshqa yuqumli bo'lmagan kasalliklar bo'yicha klinik protokollar, standartlar asosida diagnostika, davolash, profilaktika asoslarini oilaviy poliklinikalarda joriy qilish. Bronxoobstruktiv sindrom. Bolalarda nafas tizimi kasalliklarini klinik protokollar, standartlar asosida diagnostika, davolash, profilaktikasi, erta aniqlashning va davolashning yangi talqini.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi kerak:

Sog'liqni saqlash tizimiga oid Prezident Qarorlari va Farmonlari, SSV buyruqlari. BTSYoMda profilaktika, davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirishga yangi sug'urta tizimini tadbiq qilish (O'zR Prezidenti PF-88, №PQ-№185, Qarorlari, SSV № 175, SSV №97 buyruqlari).

Birlamchi tibbiy xizmat falsafasi. JSST ta'rifi. Oilaviy shifokorlik amaliyoti mezonlari. BTSYoM tuzilmasi. OP tuzilmasi bilan tanishish, bemorlar qabulini namoyish etish. Birlamchi tibbiy tizimda oilaviy shifokorning roli va funksional vazifalari. Aholi tibbiy- profilaktik ko'rigini tashkillashtirish. Oilaviy poliklinikalardagi xujjatlarning yuritilishi (O'zR SSV 175-son buyrug'i).

Sog'liqni saqlash birlamchi tizimida jamoat sog'lig'ini saqlash. Epidimiologiya,

salomatlik determinantlari, kasallanish, tarqalganlik, o'lim ko'rsatkichlari. Aholi orasida xavf omillarini aniqlash, Qandli diabet, bronxial astma, og'ir vaznlik misolida noinfekcion kasalliklarni nazorati. Dalillarga tayangan tibbiyot. Epidemiologik izlanishlar turlari. Isbotlanganlik bosqichlari piramidasi. Internet tarmog'ida tanlangan muammo yuzasidan axborot to'plash. Internet tarmog'ida tanlangan muammo va PIKO savoli yuzasidan axborot to'plash. Ilmiy maqola va tibbiy adabiyotlarni dalillarga tayangan tibbiyot mosligi jixatidan muxokama qilish. OSh amaliyotida klinik qo'llanma, protokol va standartlardan foydalanish.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Jamiyatda tibbiy madaniyat va tarbiyani targ'ib qilish. Mahalla miqyosida aholi salomatligini saqlash. Gripp, tuberkulez, virusli gepatitlarni oldini olish. Alkogolizm, narkomaniya va chekishni oqibatlarini kabi mavzularda broshyura, maruza, OAV da maqola va ocherklar yozish. Zararli odatlari bor mijozlar bilan suhbatlashish.

Profilaktika turlari va tiplari. Yuqumsiz kasalliklar misolida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika. Oilaviy poliklinikalarda profilaktik chora tadbirlarni o'tkazish. Vaksinatsiya, skrining. Oilaviy shifokorlarining skrining kartasini tuzish.

Iqlim o'zgarishining salomatlikka ta'siri. O'zbekistonda iqlim o'zgarishini baholash. Iqlim o'zgarishining revmatologik va yurak qon tomir, o'tkir va surunkali nafas a'zolari kasalliklariga ta'siri.

Samarali maslahat o'tkazish ko'nikmalari. Maslahat o'tkazish modellari va strukturasi. "qiyin kasallar " bilan ishlash. Maslahat o'tkazishni baholash, shifokor maslahatini taxlili, maslahat kartasini to'ldirish, maslahat vaqtini boshqarish. STT asoslari: ratsional ovqatlanish, jismoniy harakatlar va yuklamalar turlari, zararli odatlar va stresslardan voz kechish qadamlari.

Dori vositalarini ratsional ishlatish. Ratsional davolash jarayoni. Personal dori vositasini tanlash. Personal davo muolajasini buyurish. Bemordagi tibbiy muammolarni aniqlash. Davolash maqsadi va vazifasini belgilash. Personal dori vositasi maqbulligini tekshirish, retsept yozish. Mijozlarga dori vositalari buyurganda ma'lumot, instruktaaj va ogohlantirish. Davolash jarayonini kuzatish. Dori vositalarini ratsional tavsiya etish prinsiplari imtiyozli retseptlarni yurgizish. Dori vositalarini ratsional tavsiya etish prinsiplari imtiyozli retseptlarni yurgizish.

Qonning klinik tahlili. Bioximik laborator usullari. Peshob, najas va balg'amni laborator tekshirish.

Arterial gipertoniya. Yuqumsiz kasalliklar bo'yicha dunyo miqyosida va O'zbekistondagi vaziyat. JSSTning yuqumsiz kasalliklari bo'yicha moslashtirilgan milliy klinik protokollari va standartlar asosida olib borish: xavf omillarini baholash, diagnostika, tasnifi, yurak qon-tomir xavfini belgilash. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish: hayot tarzi va hulqni o'zgartirish. Arterial gipertoniya. JSSTning yuqumsiz kasalliklari bo'yicha moslashtirilgan klinik protokoli va standartlar asosida olib borish: nomedikamentoz va medikamentoz davolash usullari. Yurak qon-tomir kasalliklari xavfi bor patsientlarni nazorat qilish va keyingi kuzatuv.

Ko'krakdagi og'riqlar. YuQT va nafas tizimi bilan bog'liq bo'lmagan ko'krak qafasidagi og'riq (ko'krak sohasi osteoxondrozi, qovurg'alar aro nevrалgiya, o'rab oluvchi lishay, sindrom Titse, oshqozon yarasi). Qiyosiy tashxislash.

EKG tushirish amaliyoti, normal EKGni tahlil qilish, OSh ish jarayonida uchraydigan o'tkir holatlarda EKG o'ziga xos xususiyatlari va OSh taktikasi.

Yurak urishi. Aritmiya turlari, taxikardiya simptomi. Ritm va o'tkazuvchanlik buzilishidagi EKG. Aritmiyani davolash. O'IM(OIM), yurak yetishmovchiligi va infaktdan keyingi kardiosklerozda yurak ritmini buzilishini qiyosiy tashxislash. Shoshilinch yordam.

Ko'krakdagi og'riqlar. Stenokardiya – klinika, dignostika va davolash. O'tkir koronar sindrom. O'tkir miokard infarkti, TELA, aorta anevrizmasi. Standartlar va klinik protokollar asosida diagnostika, davolash, profilaktika asoslari. YuQT tizimiga bog'liq bo'lgan kasalliklarda EKG belgilari.

Hushidan ketish. Bradikardiya simptomi. O'tkazuvchanlikni buzilishi- yurak qamalida (gipoglikemik holat, postural gipotoniya, vagus hushidan ketish) OSh taktikasi. Yurak shovqinlari. Tug'ma va orttirilgan yurak nuqsonlari, bolalarda kechishini o'ziga xosligi.

Hansirash. Yurak yetishmovchiligidagi hansirash. MRC shkalasi bo'yicha hansirash darajasini baholash. Qiyosiy tashhisni o'ziga xosligi, diagnostika, EKG, davolash va OSh taktikasi. Miokardit va kardiomiopatiyada yurak yetishmovchiligi diagnostikasi.

Hansirash. Bronxoobstruktiv sindrom. JSSTning yuqumsiz kasalliklari bo'yicha moslashtirilgan milliy klinik protokoli va standartlar asosida olib borish: bronxial astma (BA) va o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi (O'SOK), klinikasi, erta aniqlash, davolash va profilaktikasidagi yangicha yondoshuvlar. Pikfluometriyani o'tkazish va ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Yo'tal, balg'am ajralishi. O'pkaning yallig'lanish kasalliklarining differensial tashxislashi – bronxit, pnevmoniya, bronxoektatik kasallik, o'pka absessida OSh taktikasi.

Xirillash, stridor. Bolalarda yo'tal va stridor bilan kechuvchi kasalliklarning differensial diagnostikasi (tonzillit, faringit, laringit, sinusit, rinit, bronxiolit, bronxit, pnevmoniya, yot jism, ko'k yo'tal). Qon tuflash. Yo'tal va qon tuflash bilan kechuvchi kasalliklarni tashxislash: o'pka raki, O'ATE, o'pka shishi, yot jism.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, O'zR SSV buyruqlari bilan ishlash, amaliyotda tadbiq etish;
- Sog'liqni saqlash tizimi va BTSYoMda profilaktika, davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish va me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Internet tarmog'ida tanlangan muammo yuzasidan axborot to'plash.
- Personal dori vositasini tanlash. Personal davo muolajasini buyurish. Bemordagi tibbiy muammolarni aniqlash. Personal dori vositasi maqbulligini tekshirish, retsept yozish. Mijozlarga dori vositalari buyurganda ma'lumot, instruktaaj va ogoxlantirish.
- Davolash jarayonini ko'zatish.
- Yurak qon-tomir kasalliklar xavfi bor patsientlarni parvarish qilish va profilaktika bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
- Yuqumsiz kasalliklari bor patsientlarga maslahat berish tamoyillari.
- Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish: hayot tarzi va hulqni o'zgartirish.
- Ratsional ovqatlanish, jismoniy faollik, tamaki mahsulotlari iste'moli va spirtli ichimliklar me'yordan ortiq iste'moli bo'yicha maslahat berish.
- AQB o'lchash standartlari, asoratlar xavfini stratifikatsiya qilish
- EKG tushirish va tahlil qilish

- Laborator va instrumental tahlil o'tkazish va ularni interpretatsiyasi.
- Pikfluometriyani o'tkazish va ko'rsatkichlarini tahlil qilish
- Ingalyatorni ishlatish.

2 Modul. Oilaviy shifokorlik amaliyotida ona va bola salomatligini saqlashda zamonaviy yo'nalishlar. Oilaviy shifokor amaliyotida endokrinologik kasalliklarni olib borish.

O'quv moduliga ajratilgan kredit: 360 kredit (Nazariy bilim kreditlari soni, onlayn o'qish - 180, amaliyot kreditlari soni – 180, ulardan bevosita ish joyida - 90, markazda offlayn o'qish - 90);

Tinglovchi kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim va ko'nikmalar:

O'quv moduli mazmuni:

- Pediatriya. Bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishini baholash va monitoringini amalga oshirish, universal progressiv patronaj tizimini amaliyotga tadbiq etish. Immunizatsiya. Ratsional ovqatlanish. Ona suti bilan oziqlantirish: imtiyozlar, JSST tamoyillari. Bolalarga qo'shimcha ovqat (prikorm) berish. Emizikli onalar va homilador ayollarga ovqatlanish bo'yicha maslahatlar. Bolalik davridagi o'ziga xos ko'p uchraydigan kasalliklar va ularni davolashning zamonaviy usullari.
- Oilaviy shifokorlikda ona va bola salomatligini saqlash. Reproktiv salomatlik va uni muxofaza qilish. Reproktiv salomatlik masalalari bo'yicha maslahat berish. Kontrasepsiya usullari. OShda bexatar onalik strategiyasi. Samarali antenatal parvarish asoslari. BTTYoM da homiladorlik davrida parvarish va tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha standart asosida olib borish. Universal progressiv patronaj tizimini amaliyotga tadbiq etish. Ginekologik kasalliklar va menopauzada profilaktika, tashhishlash va davolashning zamonaviy usullari.
- Endokrin kasalliklarining diagnostikasi, davolash va profilaktikasi.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi kerak:

Pediatryaga kirish. Bolalar organizmining anatomiya va fiziologiyasini o'ziga hosligi. Pediatryada anamnez yig'ish va bolani ko'rib tekshirish. Pediatrik ko'ruv videofilmi namoyishi. Universal progressiv patronaj tizimi asosida bola salomatligini muhofaza qilish.

1 oylikkacha bo'lgan chaqaloqni olib borishning o'ziga xosligi. Chaqaloqni parvarishlash. Onaga maslahat berish. Tekshiruvlar rejasi. Shu yoshda ko'p uchraydigan patologik holatlar. Chaqaloqlarda uchraydigan sariqlik (fiziologik, kon'yugatsion, chaqaloqlar gemolitik kasalligi, o't yo'llarini anomal rivojlanishi). OSh taktikasi.

2 yoshgacha bola, rivojlanishi, parvarishi. Ushbu yoshda kuzatiladigan eng ko'p uchraydigan patologik holatlar. Bolalarda tana haroratining ortishi. Yuqori temperatura va toshma: qizamiq, qizilcha, skarlatina, suv chechak.

2-5 yoshli bola. Ushbu yoshda kuzatiladigan eng ko'p uchraydigan patologik holatlar. Kam vaznli bolalar, raxit, anemiya. Bolalar infeksiyasi: epidparotit, ko'k yo'tal/koklyush, bo'g'ma/difteriya, poliomielit.

5-12 yoshgacha bola. Ushbu yoshda kuzatiladigan eng ko‘p uchraydigan tibbiy muammolar. Xulq atvordagi muammolar, xulq atvordagi buzilishlar, giperaktiv bola, oiladagi zo‘ravonlik.

5-12 yoshgacha o‘spirin. Jinsiy yetilish davri. Ushbu yoshda kuzatiladigan eng ko‘p uchraydigan patologik holatlar. Maslahat berishdagi xususiyatlar. O‘smirlarga do‘stona munosabatda xizmat ko‘rsatish.

Ona suti bilan oziqlantirish: imtiyozlari, JSST tamoyillari. Ko‘krak suti bilan oziqlantirishdagi muammolar. Emizikli onalarni ovqatlanishi bo‘yicha maslahatlar.

2-yoshgacha bo‘lgan bolalarni ratsional ovqatlantirish. Bolalarga qo‘shimcha ovqat berish. Oziqlantirish bo‘yicha onalarga maslahat berish, menyu tuzish.

3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda jismoniy va ruhiy (psixomotor) rivojlanishini baholash. Denver shkalasi.

O‘zR SSVning 420-sonli buyrug‘i. Ambulatoriya kartalarini to‘ldirish va olib borish (F112).

Immunizatsiya. Vaksina turlari. Profilaktik emlash kalendari. (“Yuqumli kassaliklarning immuno-profilaktikasi” Sanitariya qoida va meyorlari (SanQvaM № 0239-07). In‘eksiya xavfsizligini ta‘minlash. Vaksina turlari bo‘yicha qarshi ko‘rsatmalar. Emlashdan so‘ng yuzaga keladigan nojo‘ya ta‘sir, ularni aniqlash va davolash. (PPPI). Profilaktik emlashni rejalashtirish. Patronaj va emlashdan keyingi kuzatuv.

Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish. Sog‘lom oilani shakllantirish asoslarini yangi talqini. RS masalallari bo‘yicha konsultatsiya berish prinsiplari. Kontrasepsiya vositalari bo‘yicha maslahat berish asoslari-TAKLIF/POMOGI modeli bo‘yicha maslahat o‘tkazish. Kontraseptiv usullarning tasnifi. Kontrasepsiya vositalarini ishlatishda JSST bo‘yicha maqbullik mezonlari. Gormonal kontrasepsiya: SPK va KOK. Ta‘sir mexanizmi, afzalligi, nojo‘ya ta‘sirlari. To‘siq usuli, tabiiy usullar, Ko‘rsatma, qarshi ko‘rsatma, nojo‘ya ta‘siri, maslahat. BIV ishlatish bo‘yicha ko‘rsatma, qarshi ko‘rsatma, ta‘sir mexanizmi, nojo‘ya ta‘sirlari, maslahat. BIV ni steril paketda tayyorlash, o‘rnatish va olib tashlash amaliy ko‘nikmasi texnikasi. LAU, IJK, shoshilinch kontrasepsiya. Ko‘rsatma, qarshi ko‘rsatma, nojo‘ya ta‘siri, maslahat. Tug‘ish yoshidagi ayollar profilaktik ko‘rigini o‘tkazish. Turli yosh guruhidagi ayollarda kontrasepsiya. Kontrasepsiya bo‘yicha reja, ehtiyoj va qamrov. O‘smirlarda kontrasepsiya.

Xavfsiz onalik strategiyasi. Samarali antenatal parvarish asoslari. SSV 195-sonli buyruqlari standartlari va milliy klinik protokollar bilan ishlash. Leopold-Leviskiy bo‘yicha tashqi akusherlik tekshirish usullari. Homila yurak urishini eshitish. Bachadon tubi balandligini o‘lchash. Tug‘ish muddatini aniqlash. Homilaning taxminiy vaznini aniqlash. Homiladorlar uy kartasi. Forma №111 bo‘yicha homiladorlarni olib borish. Gravidogrammani belgilash va interpretatsiyasi. Homiladorlikdagi shoshilinch holatlarda birinchi yordam. Homiladorlikdagi qon ketishlar. Gipertenziya sindromi bor homilador ayollarni olib borish. Homiladorlik davridagi patologik holatlar: kamqonlik, rezus konflikt, qandli diabet, tug‘ma yurak nuqsonlari, jigar hastaligida OSh taktikasi, standart va milliy klinik protokollar bo‘yicha boshqarish. Universal progressiv patronaj tizimini afzalliklari. Homiladorlik davridagi infeksiyalar: nafas tizimidagi

infeksiya, siydik yo'llari infeksiyasi, OIV/OITS. Standart va klinik protokollar bo'yicha boshqarish. Tug'ruqdan keyingi davrdagi OSh taktikasi: tana haroratining ko'tarilishi (mastit, qindan ajralmalar, infeksiyalar, yo'ldosh qoldiqlari), tug'rukdan keyingi depressiya, yo'qotish sindromi.

Ginekologiya. Hayz sikli buzilishi, dismenoreya, vaginal ajralma. Qizlarni jinsiy yetilishini baholash. Bimanual tekshirish, ginekologik ko'zgu orqali tekshirish amaliyotini o'tkazish. Uch nuqtadan surtma olish amaliyotini mulyajda o'tkazish va uni interpretatsiyasi. Menopauza. Klimakterik sindrom davosi va profilaktikasidagi yangicha talqin. Bachadondan disfunktsional qon ketishlar (menorragiya, amenoreya).

Endokrinologiya. Ortiqcha vaznlik, semizlik, diagnostika, klassifikatsiya, xavf omillari, profilaktika va davolash. Ozib ketish: diagnostikasi, diagnostik mezonlari, tekshiruv usullari. Davolash tamoyillari. Bemorlar va ularning yaqinlari bilan konsultatsiya olib borish. Tana vazni indeksini chiqarish va interpretatsiyasi. JSSTning qandli diabet (yuqumli bo'lmagan kasalliklar) bo'yicha klinik protokollar, SSVning standartlari asosida diagnostika, davolash, profilaktikadagi ilg'or yo'nalishlari. Qandli diabetni erta aniqlash, xavf omillari, skrining va OSh taktikasi. Qandli diabet 2 turi klinika, diagnostika, tasniflanishi va davolash tamoyillari. Qandli diabetning o'tkir va surunkali asoratlari. I va II tip qandli diabet farqlari. Qandli diabetning profilaktikasi, sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar. Asosiy ovqat mahsulotlarini glikemik indeks ko'rsatkichlari. Qalqonsimon bez kasalliklari: endemik bo'qoq, gipotireoz, gipertireoz klinikasi, diagnostikasi, davosi. OSh taktikasi. Qalqonsimon bez palpatsiyasi.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:

- 3 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy va psixomotor rivojlanishini baholash.
- Onaga maslahat berish. Tekshiruv o'tkazishlar rejasi.
- Chaqaloq shartli va shartsiz reflekslarini aniqlash. Vaksinatasiya. O'z RSSV SanQvaM.
- Kontraseptiv vositalarini ishlatish bo'yicha maqbullik mezonlarini aniqlash.
- BIV o'rnatish va BIV ni olish. BIV ni steril paketda tayyorlash, o'rnatish va olib tashlash amaliy ko'nikmasi texnikasi.
- Leopold Leviskiy bo'yicha tashqi akusherlik tekshirish usullari. Homila yurak urishini eshitish. Bachadon tubi balandligini o'lchash. Tug'ish muddatini aniqlash. Homilaning tahminiy vaznini aniqlash.
- Forma №111 bo'yicha homiladorlarni olib borish. Gravidogrammani belgilash va interpretatsiyasi.
- Oilaviy poliklinikalarda SSV tomonidan ishlab chiqarilgan standartlar va klinik protokollar asosida bemorlarni olib borish
- Homiladorlikdagi shoshilinch holatlarda (preeklampsiya va eklampsiya) birinchi yordam.
- Qizlarni jinsiy yetilishini baholash. Bimanual tekshirish, ginekologik ko'zgu orqali tekshirish amaliyotini o'tkazish.
- Uch nuqtadan surtma olish amaliyotini mulyajda o'tkazish va uni interpretatsiyasi
- Mulyajda ko'krak bezlarini tekshirish amaliyoti

- Pap test uchun sitologiyaga surtma olish va uni interpretatsiyasi.
- Sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish bo'yicha tavsiyalarni berish;
- Qalqonsimon bez palpatsiyasi.

3-modul. Asosiy yuqumli va yuqumli bo'lmagan ichki kasalliklar profilaktikasi, skriningi, tashxislash, davolash, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga zamonaviy yondoshuvlar.

O'quv moduliga ajratilgan kredit: 360 kredit (Nazariy bilim kreditlari soni, onlayn o'qish - 180, amaliyot kreditlari soni – 180, ulardan bevosita ish joyida - 90, markazda offlayn o'qish - 90);

Tinglovchi kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim va ko'nikmalar:

O'quv moduli mazmuni:

- Yuqumli kasalliklar. Isitma, tekshirish usullari, isitma egri chiziqlari. Noaniq genezli isitma. Ichak infeksiyalari: dizenteriya, salmonellez, qorin tifi, brusellez. Havo-tomchi infeksiyasi va ularni oldini olish: O'RVI, epidemik parotit, koklyush, difteriya, poliomelit, meningit. Tuberkuлез. Etiologiya, patogenez, epidemiologiyasi. Katta yoshlilarda va bolalarda olib borish taktikasi. OIV/OITS, profilaktikasi, diagnostikasi, bemorlarni olib borishda zamonaviy yondashuv va OSh ning o'rni. Video film namoyishi. BTSYoMda olib borish algoritmi. Aholi bilan profilaktik chora- tadbirlar olib borish. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar. Sindromli yondoshuvlar, davolash algoritmi.
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari profilaktikasi, diagnostikasi va davolashda klinik protokollarni qo'llashda zamonaviy yondashuv. OSh taktikasi. Buyrak, peshob, teri- tanosil tizimi kasalliklarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning davolashning zamonaviy usullari. OSh taktikasi. Kamqonlik. Tasnifi, epidemiologiyasi va qiyosiy tashxislash. Gemablastozlar, qon onkologik kasalliklarni ambulator sharoitda erta tashxislash qoidalari. Onkologik kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni davolashda zamonaviy yondashuv.
- Revmatologik kasalliklarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni davolashning zamonaviy usullari, dispanserizatsiyada OSh taktikasi.
- Dermatovenerologiya. Teridagi patologik elementlar. Teri kasalliklarining sabablari. Tangachali temiratki, qizil yassi temiratki, oddiy xusunbuzarlar. Teri infeksiyon parazitari kasalliklari. Teri zamburug'li kasalliklari. Pigmentatsiyani buzilishi. Nevus. Melanoma. Gipopigmentatsiya (vitiligo). Teridagi hajmli kasalliklar.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi kerak:

Isitma, tekshirish usullari, isitma egri chiziqlari. Noaniq genezli isitma. Ichak infeksiyalari: dizenteriya, salmonellez, qorin tifi, brusellez. Havo-tomchi infeksiyasi va ularni oldini olish: O'RVI, epidemik parotit, koklyush, difteriya,

poliomielit, meningit.

OIV/OITS, profilaktikasi, diagnostikasi, bemorlarni olib borishda zamonaviy yondoshuv va OShning o'рни. OIV/OITS infeksiyasining etiologiyasi, patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITSda testgacha va testdan keyingi maslahat o'tkazish ko'nikmasi. Videofilm namoyishi.

Yangi tipdagi koronavirus infeksiyasi COVID-19 etiologiya, klinikasi, diagnostikasi. BTSYoMda olib borish algoritmi. Aholi bilan profilaktik choratadbirlar olib borish. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar. Sindromli yondoshuvlar, davolash algoritmi. Siydik-jinsiy yo'llari tuberkulezi, buyrak kolikasi, glomerulonefrit, buyrakning surunkali kasalliklarida qiyosiy tashhis.

Gastroenterologiya. Qorindagi og'riq sindromi. Qorindagi o'tkir va surunkali og'riqlar. Qorindagi og'riq bilan bemordan anamnez yig'ish va ko'rib tekshirishni o'ziga xosligi. Qorin bo'shlig'ida joylashgan a'zolar anatomiya va fiziologiyasi. O'tkir xolesistit (o't sanchig'i) o'tkir pankreatit, appenditsit, ichak tutilishi (aorta anevrizmasi, mezenterial tomirlar trombozi) va enterokolitda qorindagi og'riqlarni qiyoslash. Gastrit va yara kasalligi (12 b.i va oshqozon), surunkali xolesistit va surunkali pankreatitni qiyosiy tashhisi. Profilaktika. OSh taktikasi. Surunkali xolesistit, surunkali pankreatitni olib borish taktikasi, tashhislash, qiyosiy tashhislash, birlamchi tizimda olib borish standartlari.

Qorindagi og'riq. Dispepsik buzilishlar (dispepsiya, ko'ngil aynashi, qusish, jig'ildon qaynashi). Ezofagit, pilorostenoz, pilorospazm, NYaK, Kron kasalligi, ichak ta'sirlanishi sindromi. Divertikulit-bolalardagi kechish xususiyati.

Diareya va qabziyat. Diareya turlari va olib borish, klinikasi, tashhislash. Malabsorbsiya sindromi. Yosh bolalarda va keksalarda klinik kechishi xususiyatlari. Ichaklardagi yallig'lanish kasalliklari (nospesifik yarali kolit, Kron kasalligi, ichaklar divertikulezi). Yo'g'on ichak ta'sirlanish sindromi. Tasnifi. Mezonlari. OSh taktikasi.

Sariqlik. O'tkir va surunkali gepatit, xolesistit, pankreatit, sirroz. Virusli, alkogoli va dorilardan shikastlangan jigar kasalliklari. Jigar sirrozi profilaktikasi va OSh taktikasi. Profilaktika va OSh taktikasi.

Kamqonlik. Temir tanqisligi va turli anemiyalarni tashhislash, davolash, oldini olish. OP va OShPlarda SSV tomonidan ishlab chiqarilgan standartlar va milliy klinik protokollar asosida patsientlarni olib borish taktikasi. Ratsional ovqatlanish asoslari va tamoyillaridagi ilg'or chet el tajribasi. Gemablastozlar. Leykoz va limfoma kasalliklarini ambulator sharoitda erta tashxislash qoidalari.

Onkologiyaga kirish. BTSYOM da onkologik kasalliklar skriningi. Ko'krak bezi va bachadon bo'yni rakini erta aniqlash usullari. O'pka raki, oshqozon ichak tizimidagi rak, prostata bezi rakini erta aniqlash va profilaktika. Onkologik sergaklik. Onkologik kasallarni dispanser kuzatuvdagi yangicha yo'nalishlar. Parvarish. Og'riqni boshqarish. Jarrohlik amaliyotidan keyingi kuzatuvdagi ilg'or va yangicha yondashuvlar.

Revmatologiya. Artralgiya va artritlar. Qo'l va yelkadagi og'riqlar. Karpal tunnel sindromi. Revmatoidli artritni kechishini o'ziga xosligi profilaktika va OSh taktikasi. Bo'g'im ichi ineksiyasi. O'tkir revmatik isitma, qaytalangan

revmatik isitma. Yurakni surunkali revmatik kasalligigi kechishini o'ziga xosligi profilaktika va OSh taktikasi.

Sonda, tizza, oyoq va to'piqdagi og'riqlar: reaktiv artritlar, Reyter kasalligi, podagra qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi. Bo'g'imlarning metabolik kasalliklari. Osteoartroz kasalligini kechishini o'ziga xosligi, tashxislash, zamonaviy davolash va OSh taktikasi. Bo'yin, orqa va beldagi og'riqlar. Umurtqa pog'onasi kasalliklari: osteoxondroz, Bexterov kasalligida qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi. Biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklari: tizimli qizil yugurik, sklerodermiya, dermatomiozit va tizimli vaskulitlarni qiyosiy tashxislash va OSh taktikasi.

Dermatovenerologiya. Teridagi patlogik elementlar. Teri kasalliklarining sabablari. Tangachali temiratki, qizil yassi temiratki, oddiy xusunbuzarlar. Teri infeksiyon parazitlar kasalliklari: impetigo, genitaliy sohasi teri yaralari, o'rab oluvchi yoki belbog'simon uchuq, eshakem, qichima. Teri zamburug'li kasalliklari: dermatofitiya, kandidoz, qipiqplanuvchi lishay. Pigmentatsiyani buzilishi. Nevus. Melanoma. Gipopigmentatsiya (vitiligo). Teridagi hajmli kasalliklar: papillomatoz, lipoma, rak.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:

- Qorin palpatsiyasi.
- Rektal tekshiruv o'tkazish.
- Ambulator sharoitda bolalar va o'smirlarda onkogematologik kasalliklar skriningini savolnoma asosida o'tkazish.
- Bo'g'imlar holatiga baho berish, simptomlar semiotikasi.
- OIV/OITS, koronavirus infeksiyasini aniqlanganda yoki gumon qilinganda epidemiologik anamnez yig'ishni; profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazish;
- Shaxsiy himoya vositalarni (ShXV) qo'llash (kiyish va yechish tartibi), tibbiy niqoblardan, respiratorlardan foydalanish;
- Tibbiy xodimlar qo'l gigienasi (qo'l yuvish, antiseptik bilan zararsizlantirish)
- Tekstil materiallarni dezinfektsiyasi, biologik suyuqliklarni zararsizlantirish, tibbiy chiqindilarni utilizatsiyasi;

4-modul. Xirurgiya, travmatologiya, shoshilinch holatlarda, LOR va oftalmologik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar.

Oilaviy shifokor amaliyotida nevrologik, psixiatrik, nefrologik va urologik kasalliklarni tashxislash va davolashga yangicha yondoshuv.

O'quv moduliga ajratilgan kredit: 360 kredit (Nazariy bilim kreditlari soni, onlayn o'qish - 180, amaliyot kreditlari soni – 180, ulardan bevosita ish joyida - 90, markazda offlayn o'qish - 90);

Tinglovchi kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim va ko'nikmalar:

O'quv moduli mazmuni:

Otorinolaringologik kasalliklarini o'ziga xos xususiyatlari, ularni aniqlash, tashxislash

va davolashning yangi talqini. Ko'z kasalliklari diagnostikasi va davolashning zamonaviy usullari.

Nevrologik kasalliklar va ularni davolashning zamonaviy usullari. Psixiatrik kasalliklar tizimi kasalliklarini aniqlashning va davolashning yangi talqini, dispanserizatsiyada OSh ning o'rnini. BTTYoMlarida xirurgik va travmatologik yordamni tashkillashtirish. OP va OShPlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini tashkil etish. OSh amaliyotida tez-tez uchraydigan shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi kerak:

Otorinolarinologiya. Tumov, burun bitishi, burundan ajralmalar. Gipertrofik, atrofik, vazomotor va allergik rinitlar klinikasi, tashhisi, davolash usullari. O'tkir va surunkali sinusitlar: gaymorit, frontit, etmoidit, sfenoidit. ORVI, bolalarda kechish xususiyatlari. Burundan qon ketishini to'xtatish. Burundagi yot jism va birinchi yordam. Rinoskopiya o'tkazish. Tomoqdagi og'riqlar. Faringit, angina, tonsillit, xalqumorti absessi, difteriyalarning qiyosiy tashhisi. Bolalarda kechish xususiyati. Faringoskopiya. Quloqdagi og'riqlar, quloqdan ajralmalar, eshitishning pasayishi. Quloq kasalliklari: Serali tiqin, Tashqi otit, Asoratsiz o'tkir va surunkali o'rta otit, va ichki otitni tashhislash va davolashdagi zamonaviy usullar. Tashqi eshitish yo'lidagi yot jism. Otokopiya amaliyotini mulyajda o'tkazish. Og'ir quloqlik (neyrosensor va konduktiv)-bolalarda va keksalarda, tashxislash, OSh taktikasi. Mener sindromi. Kamerton (Veber va Rinne) sinamalarini o'tkazish.

Oftalmologiya. Ko'zdan ajralmalar, "Qizil ko'z", "Yopishqoq ko'z" sindromlari, ko'zdagi qichima. O'tkir va surunkali konyunktivit. Govmichcha. O'tkir dakriotsistit. O'tkir va surunkali blefarit. Tashhislash, differensial tashhislash va OSh taktikasi. Ko'zni tashqi tekshiruvi. Ko'zdagi og'riqlar: glaukoma, episklerit, uveit, keratit, ko'zdagi yot jismlar. OSh taktikasi. Ko'rish o'tkirligining buzilishi: miopiya, presbiopiya, astigmatizm. G'ilaylik, bolalarda kechishi, yashirin g'ilaylikni tekshirish testi. Oftalmoskopiya, ko'rish o'tkirligini, ko'rish maydonini, ranglarni ajratish qobiliyatini tekshirish.

Nevrologiya. Bosh og'rig'i. Birlamchi bosh og'riqlari: migren, zo'riqishdagi bosh og'rig'i, klasterimon bosh og'rig'i). Siptomatik bosh og'riqlar. Bosh og'riqlar diagnostikasi, qiyosiy tashhislash va davolash. Nevrit, nevralkiya va radikulit tashhislash, davolash va profilaktikasidagi yangicha talqin va OSh taktikasi. Nevrologik tekshirish usullari. Bosh aylanishi, turlari: vestibulyar (vertigo) va novestibulyar (markaziy). Diagnostika va davolash usullari, reabilitatsiya. Bosh miya qon-tomir kasalliklari. Miya qon aylanishining o'tib ketadigan buzilishlari. Miya qon aylanishining o'tkir buzilishlari (insultlar). Miya qon aylanishining o'tkir buzilishini boshidan kechirgandan keyingi holat. Tutqanoqlar, tremor va ong buzilishi. Epilepsiya va tutqanoqli holatlar. Ushbu holatlarda nevrologik tekshiruvlarning o'ziga xos xususiyatlari. Birinchi yordam va keyingi davolash-diagnostik taktikasi. Parkinson kasalligi.

Psixiatriya. Ruhiy holatni baholash, diagnostik shkalalar, psixoprofilaktika. Kayfiyatning buzilishi. Depressiya, nevroz, tashvishli holatlar - maniya va fobiyalar, psixosomatik o'zgarishlar: diagnostika va OSh taktikasi. Fikrlashning buzilishi va psixotik o'zgarishlar: shizofreniya, demensiya, deliriya, Alsgeymer kasalligi.

Alkogolizm va narkomaniya.

Nefrologiya. Nefrologik bemorlarni o'ziga xos tekshirish usullari. Peshobdagi o'zgarishlar: miqdoriy (poliuriya, oligouriya, anuriya), sifatiy (giperstenuriya, gipostenuriya, proteinuriya, piuriya, gematuriya, gemoglobinuriya, silinduriya, bakteriuriya). Simptomsiz bakteriuriya, uretrit, sistit, pielofrit va prostatitda OSh taktikasi. Peshob tahlillarining interpretatsiyasi. Peshob chiqarishni buzilishi: pollakiuriya, nikturiya, stranguriya, siydik tutolmaslik, enurez, o'tkir va surunkali siydikning tutilishi. Bolalarda enurezni davolash va ota-onalarga maslahat o'tkazish. Siydik-jinsiy tizimidagi og'riqlar: moyakdagi og'riq, siydik naylari, prostata bezi, erkaklarda tashqi jinsiy organlar.

Tuxum buralib qolishi, epididimoorxit, varikotsele, kriptorxizm, fimoz, parafimoz, balanit, balanopostitda OSh taktikasi. Ota-onasiga maslahat berish, anamnez yig'ish, jinsiy olat va moyakni ko'zdan kechirish. Prostata palpatsiyasi.

Jarrohlik. BTSYoMda jarrohlik yordamni tashkillashtirish. Kesilgan va lat yegan jarohatlarda OSh taktikasi. Chok qo'yish va olish, jarohatni tozalash va bog'lov qo'yish. O'sib etga kirgan tirnoq, panaritsiy, paronixiy, cheklangan yotoq yaralar, mastit, furunkullar, trofik yaralarni davolash va profilaktikasida ilg'or tajribalar asosida tibbiy yordam ko'rsatish. Toza va yiringli yarani xirurgik tozalash, qoqsholga qarshi zardob va anatoksinni yuborish. Jarrohlik kabinetida ishlash. Shikastlangan va jarohatlangan mijozlarga yordam ko'rsatish. Jarrohlik amaliyotidan keyingi davrda (boshda, ko'krak qafasida, qorin bo'shlig'ida, oyoq, ko'krak bezi amputatsiyasidan so'ng) mijozlarga OSh amaliyotida KP va standart bo'yicha yordam ko'rsatish. Qon qusish. Orqa ichakdan qon ketish. Qizilo'ngach venalarining varikoz kengayishi, oshqozon va 12 barmoqli ichakdan qon ketishlar. NYaK, orqa chiqaruv yo'lidagi yoriqlar, gemorroy, oshqozon va to'g'ri ichak rakida OSh amaliyotida KP va standart asosida bemorlarni olib borish. Jarrohlik va travmatologik holatlardan keyingi asoratlar: qon ketish, septik, shok holatida birinchi yordam. Toza va yiringli yarani jarrohlik tozalash. Chok qo'yish va olish, jarohatni tozalash va bog'lov qo'yish.

Travmatologiya. Shikastlanishlar: lat yeyish, et cho'zilishi, paylar uzilishi, bo'g'im chiqishi, suyaklar sinishida OSh taktikasi. Quyish, elektrotravmada OSh taktikasi. Bosh miya jarohatlarida OSh taktikasi. Langet, shinalar qo'yish, lat yeyishda anesteziya, umurtqa shikastlanganda, suyaklar singan bemorlarni immobilizatsiyasi. Balandlikdan yiqilish. Davomiy bosim ostida qolishda birinchi yordam ko'rsatishdagi yangicha talqin. Zaharlanish, cho'kish, hashorat va ilon chaqishi, osilish, kuyish va muzlashda OSh taktikasi. OP va OShP larda SSV tomonidan ishlab chiqarilgan standartlar va klinik protokollar asosida patsientlarni olib borish taktikasi.

Shoshilinch holatlar. BTSYoM tizimida shoshilinch yordam tizimi tuzilishi. Tutqanoq, o'tkir nafas yetishmovchiligi, astmatik statusda yordam ko'rsatishdagi yangicha usullar. Yurak-o'pka reanimatsiyasi, katta yoshdagilarda va bolalarda o'tkazish xususiyatlari. Hushsiz bemor. Glazgo shkalasi bo'yicha baholash. Ko'krak qafasidagi o'tkir og'riq (infarkt miokarda), gipertonik kriz, buyrak va o't qopi sanchig'i, gipoglikemik va ketoatsidotik komalar KP va standart bo'yicha yordam ko'rsatishdagi yangicha talqin. OSh amaliyotida uchraydigan shok holatlarda: septik shok, anafilaktik shok, elektrotravmadan so'nggi shok, qon ketish oqibatidagi gipovolemik shok KP va standart bo'yicha yordam ko'rsatishdagi yangicha usullar.

O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:

- Burundan qon ketishini to'xtatish.
- Burundagi yot jism va birinchi yordam.
- Rinoskopiya o'tkazish. Rinoskopiya va otoskopiya natijalarini ambulator kartada yoritish.
- Faringoskopiya
- Otoskopiya amaliyotini mulyajda o'tkazish.
- Kamerton (Veber va Rinne) sinamalarini o'tkazish
- Oftalmoskopiya amaliyotini mulyajda o'tkazish. Oftalmoskopiya natijalarini ambulator kartada yoritish.
- Ko'z soqqasi palpatsiyasi.
- Ko'zga tomchi dorilarini tomizish.
- Ko'zdagi yot jism, OSh taktikasi.
- Ko'rish o'tkirligini tekshirish.
- Ko'rish maydonini tekshirish.
- Ko'z bosimini o'lchash.
- OSh amaliyotida nevrologik ko'rikni o'tkazish
- Nevrologik statusni baholash. 12 juft bosh miya nervlarini tekshirish va baholash.
- Xarakat va sezgi tizimini tekshirish. Reflekslarni aniqlash.
- Psixik statusni baholash, psixoprofilaktika.
- Bolalarda enurezni davolash va ota onalarga maslahat o'tkazish.
- Peshob tahlillarini (UPT, peshob BAK ekmasi, tbs ga peshob) interpretatsiyasi
- Prostata palpatsiyasi.
- Siydik qopini kateterizatsiyasi.
- Moyakda og'riq bor bolalar ota onasiga maslahat berish. Anamnez yig'ish, jinsiy olat va moyakni ko'zdan kechirish.
- Kattalarda va bolalarda o'pka-yurak reanimatsiyasini bajarish.
- Glazgo shkalasi yordamida hushsiz bemorni baholash.

O'quv kursi davomida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan amaliy ko'nikmalar

O'quv kursi yakunida bilishi lozim:	- Aholi sog'lom turmush tarzi asoslari - To'g'ri ovqatlanish bo'yicha maslahat berish prinsiplari - Kardilogik kasalliklarni erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Pulmonologik kasalliklarni erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Gastro enterologik kasalliklarni erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Nevrologik kasalliklarni erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Psixiatrik kasalliklarni erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Akusherlikdagi shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatish
--	---

	- Ginekologik va reproduktiv a'zolar kasalliklarida erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Bolalar kasalliklarini erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Travmatologik, jarrohlik kasalliklarni erta aniqlash, tashhislash va profilaktika asoslari - Shoshilinch holatlarda statsionargacha bo'lgan birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish
O'quv modullari yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	1. Qon bosimini o'lchash standartlari va turlari amaliyoti 2. Kattalarda antropometrik o'lchovlarni o'lchash, TVIni hisoblash va baholash 3. EKG tushirish texnikasi 4. EKG tahlili 5. Laborator tekshiruvlar interpretatsiyasi. 6. Instrumental tekshiruvlar interpretatsiyasi. 7. Pikfluometriyani o'tkazish va ko'rsatkichlarini tahlil qilish. 8. Ingalyatorni qo'llash amaliyoti 9. Bolalar tana vaznini o'lchash (5 yoshgacha). 10. Bolalar tana uzunligini o'lchash (5 yoshgacha). 11. Bolalarda bosh aylanasiini ol'chash (1 yoshgacha). 12. Bolalarda ko'krak aylanasiini ol'chash (1 yoshgacha). 13. Yosh onalarni chaqaloq va ko'krak yoshidagi bolalarni uy sharoitida yuvintirish, cho'miltirish va gigienik vannasini to'g'ri bajarishga o'qitish amaliyoti. 14. Yosh onalarni chaqaloq va ko'krak yoshidagi bolalarni soch qismidagi gneysdan tozalashga o'qitish amaliyoti. 15. Yosh onalarni kindik qoldigi parvarishiga o'qitish amaliyoti. 16. Onani va bolani ko'krak bilan emizishga tayyorlash amaliyoti. 17. Kichik yoshdagi bolalarda Barlau testini o'tkazish amaliyoti 18. Gipotermiyada yordam ko'rsatish 19. Quloq tomchilarini tomizish amaliyoti 20. Chaqaloq shartli va shartsiz reflekslarini aniqlash. 21. 1 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy va psixomotor rivojlanishini baholash. 22. 3 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy va psixomotor rivojlanishini baholash. 23. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy va psixomotor rivojlanishini baholash. 24. Kontratseptiv vositalarini ishlatish bo'yicha maqbullik mezonlarini aniqlash. 25. BIV o'rnatish texnikasi. 26. BIV olib tashlash texnikasi. 27. Leopold-Leviskiy bo'yicha tashqi akusherlik tekshirish usullari. 28. Homila yurak urishini eshitish. 29. Bachadon tubi balandligini o'lchash, homilaning taxminiy

	vaznini aniqlash. 30. Tug‘ish muddatini aniqlash. 31. Forma №111 bo‘yicha homiladorlarni olib borish. 32. Gravidogrammani belgilash va interpretatsiyasi 33. Homiladorlikdagi shoshilinch xolatlarda (preeklampsiya va eklampsiya) birinchi yordam. 34. Qizlarni jinsiy yetilishini baholash. 35. Bimanual tekshirish, ginekologik ko‘zgu orqali tekshirish amaliyotini o‘tkazish. 36. Uch nuqtadan surtma olish amaliyotini mulyajda o‘tkazish va uni interpretatsiyasi. 37. Mulyajda ko‘krak bezlarini tekshirish amaliyoti. 38. PAP test uchun sitologiyaga surtma olish va uni interpretatsiyasi. 39. Sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalarni berish; 40. Qalqonsimon bez palpatsiyasi. 41. Shaxsiy himoya vositalarni (ShXV) qo‘llash (kiyish va yechish tartibi), tibbiy niqoblardan, respiratorlardan foydalanish; 42. Tibbiy xodimlar qo‘l gigienasi (qo‘l yuvish, antiseptik bilan zararsizlantirish) 43. Tekstil materiallarni dezinfektsiyasi, biologik suyuqliklarni zararsizlantirish, tibbiy chiqindilarni utilizatsiyasi; 44. Qorin palpatsiyasi. 45. Rektal tekshiruv o‘tkazish. 46. Ambulator sharoitda bolalar va o‘smirlarda onkogematologik kasalliklar skriningini savolnoma asosida o‘tkazish. 47. Bo‘g‘imlar holatiga baho berish, simptomlar semiotikasi. 48. OIV/OITS, koronavirus infeksiyasini aniqlanganda yoki gumon qilinganda epidemiologik anamnez yig‘ish, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora- tadbirlarni o‘tkazish; 49. Burundan qon ketishini to‘xtatish. 50. Burundagi yot jismda birinchi yordam. 51. Rinoskopiya o‘tkazish. Rinoskopiya va otoskopiya natijalarini ambulator kartada yoritish. 52. Faringoskopiya o‘tkazish. 53. Otoskopiya o‘tkazish. 54. Kamerton (Veber va Rinne) sinamalarini o‘tkazish 55. Oftalmoskopiya o‘tkazish. Oftalmoskopiya natijalarini ambulator kartada yoritish. 56. Ko‘z tashqi tekshiruvi. 57. Ko‘zga tomchi dorilarni tomizish. 58. Ko‘zga yot jism tushganda OSh taktikasi. 59. Ko‘rish o‘tkirligini tekshirish. 60. Ko‘rish maydonini tekshirish. 61. Ko‘z bosimini o‘lchash.
--	---

	62. OSh amaliyotida nevrologik ko‘rikni o‘tkazish. 63. Nevrologik statusni baholash. 64. 12 juft bosh miya nervlarini tekshirish va baholash. 65. Harakat va sezgi tizimini tekshirish. 66. Reflekslarni aniqlash. 67. Psixik statusni baholash. 68. Peshob tahlillarini (umumiy peshob tahlili, peshobning bakteriologik tekshiruvi, silda peshob tahlili) interpretatsiyasi. 69. Prostata palpatsiyasi. 70. Siydik qopini kateterizatsiyasi. 71. Jinsiy olat va moyakni ko‘zdan kechirish. 72. Abssessni ochish 73. Jarohatni tozalash 74. Umurtqa pog‘onasini tekshirish (skalioz va kifozni aniqlash) 75. Suyak-mushak tizimini maxsus tekshiruv sinamalarini o‘tkazish 76. Kattalarda va bolalarda o‘pka-yurak reanimatsiyasini bajarish amaliyoti. 77. Glazgo shkalasi yordamida xushsiz bemorni baholash.
--	---

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK TA’MINOTI

O‘quv bazalari: O‘qish TXKMRM tipme.uz uzluksiz tibbiy ta’lim portali orqali onlayn, hamda shifokorlar malakasini oshirish kafedralarida offlayn tarzda gibrid ko‘rinishida olib boriladi. Offlayn mashg‘ulotlar 8.30 da boshlanib, 13.30 da tamom bo‘ladi. Tushlik 30 daqiqa.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jixozlar ro‘yxati:

- Onlayn tarzda bilim olish uchun tinglovchidan internet tarmog‘iga ulangan kompyuter talab qilinadi.
- Offlayn tarzda amaliy mashg‘ulotlar uchun seminar va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tish uchun o‘quv xonalari;
- OSh bemorlarni qabul qilish xonasi;
- Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustaxkamlash uchun mulyaj va fantomlar joylashtirilgan maxsus o‘quv xonasi;
- Stol va stullar;
- Kompyuter, proektor, kolonkalar;
- Mulyajlar: akusherlik-ginekologiya mulyaji, ko‘krak suti bezi fantomi, rektal tekshiruv mulyaji, siydik pufagi kateterizatsiyasi mulyaji, ko‘z, quloq tekshirish mulyajlari, shinalar, o‘pka-yurak reanimatsiyasi va boshqalar;
- Asbob-uskunalar: tonometr va fonendoskop, pikfloumetr, ingalyator, nevrologik bolg‘acha va boshqalar;
- Doska, flipchart, markerlar;
- Adabiyotlar: kitoblar, elektron resurslar, klinik protokollar, jadvallar, qo‘llanmalar, vaziyatli masalalar to‘plami, testlar to‘plami, OSKE nazorat savollari.

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.

Maqsad – tinglovchilarning Ixtisoslashtirish malaka oshirishkursida olgan bilimi, shakllangan ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarini rejalashtirilgan o'quv natijalariga muvofiqligini ta'minlash, ulardan kasbiy faoliyat masalalarini hal qilishda foydalanish orqali aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashdan iborat.

Ixtisoslashtirish va malaka oshirish kursi boshida tinglovchilar ularning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish tartibi va qoidalari bilan tanishtirilishi lozim.

Ixtisoslashtirish va malaka oshirish kurslarida tinglovchilarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat talablariga muvofiqligini aniqlash uchun **quyidagi nazorat turlarini** o'tkazish nazarda tutiladi:

1. Onlayn modullardan o'tish nazorati (test va vaziyatli masalar) – 50 ball (50%);
2. Har bir modulni onlayn tarzda yakunlaganidan keyin offlayn tarzda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish oraliq nazorati– 50 ball (50%);

№	Nazorat turi	Maksimal ball	Saralash bali
1.	Onlayn modullardan o'tish nazorati	50	35,0
2.	Offlayn tarzda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish oraliq nazorati	50	35,0
3.	Jami:	100	70,0

Onlayn modullardan o'tish nazorati – onlayn kurs yakunida taqdim etilgan ma'lumotlar bo'yicha nazariy bilim va malaka mahoratini tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usulidir. Ushbu dastur asosan onlayn o'qish jarayoniga asoslangan bo'lib, butun yo'nalish va ulardagi mavzular tipme.uz uzluksiz tibbiy ta'lim portali yordamida amalga oshiriladi. Tinglovchi 4 ta moduldan har bir modulning 50% ya'ni 180 kreditni onlayn tarzda mavzularni o'zlashtirish va 25 % ya'ni 90 kreditni ularni o'z ish faoliyatidan ajralmagan holda o'z amaliyotiga tadbiiq etish orqali amalga oshiradi. Nazorat onlayn portaldagi test savollarini va vaziyatli masalalarni yechish orqali to'plangan ball asosida baholanadi. Umumiy balldan 70% va undan ko'p to'plagan tinglovchi keyingi bosqichga o'tkaziladi.

Har bir modulni onlayn tarzda yakunlaganidan keyin offlayn tarzda amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish oraliq nazorati – har bir modul yakunida mutaxassislik bo‘yicha malaka mahorati/amaliy ko‘nikmalarni tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usulidir. Tinglovchi har bir modulni onlayn tarzda tugatganidan so‘ng

Tibbiy ta’lim muassasalarida offlayn tarzda davom ettiradi. Bu dasturning 25% tashkil etib, onlayn o‘qish davomida egallagan bilimlarini, ayniqsa o‘zlashtirgan amaliy ko‘nikmalarini baholashga asoslanadi. Nazorat kombinatsiyalangan shaklda o‘tkaziladi, ya’ni amaliy ko‘nikma bajarilishi sharti bo‘lgan vaziyatli masala ko‘rinishida. Nazorat yakunida 70% va undan ko‘p ball to‘plagan tinglovchi ushbu modulni tugatgan hisoblanadi.

Amaliy ko‘nikma/malaka mahoratini egallash darajasini baholashda tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan amaldagi Davlat talabi va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko‘nikmalar sinovdan o‘tkaziladi. Baholash natijalari «o‘tdi» va «o‘tmadi» deb belgilanadi. Amaliy ko‘nikmalarni bajarish algoritmi bo‘yicha biron bir qadamni noto‘g‘ri bajargan yoki bajarmagan tinglovchi nazoratning mazkur bosqichidan «o‘tmagan» deb hisoblanadi.

Nazoratdan o‘tkazish vaqtida tinglovchiga amaliy ko‘nikma bajarish shartini o‘zida saqllovchi 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masala beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to‘g‘ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Saralash bali 70% ni tashkil etadi.

Tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalari quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi: O‘zlashtirish (%)	Baho	Tinglovchining bilim darajasi
90-100		Tinglovchi o‘quv dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, chuqur va to‘liq bilimga ega; savollarga mantiqiy to‘g‘ri va izchil javob beradi; javoblarida nazariyani amaliyot bilan chambarchas bog‘laydi; amaliy masalalarni hal etishda olgan bilimlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi, fikrini xatosiz, to‘liq asoslaydi; amaliy ko‘nikmalarni algoritm bo‘yicha izchil va to‘g‘ri bajaradi; amaliy topshiriqlarni bajarishda kasbiy bilimini mukammal

(87-100)	5	ifodalaydi, yuqori malaka maxoratini ko'rsatadi; vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarini asoslaydi; kasbiy muammolarni mustaqil va ijodiy yechish qobiliyatini ko'rsatadi. noan'anaviy holatlarda muammoni mustaqil va ijodiy yechadi.
80-89 (76-88)	4	Tinglovchi dastur doirasida to'liq bilimlarga ega, javobini to'g'ri va xatosiz bayon etadi, savollarga mantiqiy to'g'ri javob beradi. Amaliy masalalarni hal etishda olgan bilimlarini to'g'ri qo'llay oladi, o'z fikrini asoslashda yuzaga kelgan xatoliklarni o'z vaqtida to'g'rilaydi; amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; amaliy topshiriqlarni bajarishda yetarli kasbiy bilim/mahoratga ega ekanligini ko'rsatadi, yangi holatlarda to'g'ri (lekin ratsional emas) bilimlarni ifodalaydi; vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarini asoslaydi
70-79 (60-75)	3	Tinglovchi dastur doirasida bilimga ega, savollarga to'g'ri javob beradi, lekin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi; amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, biroq asoslashda bir muncha qiynaladi.
70 (60)dan kam	2	Tinglovchi dastur doirasidagi materialning asosiy qismini bilmaydi, savollarga javob berishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi; javobini mantiqiy bayon etmaydi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi; Amaliy ko'nikmalarni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadi; vaziyatli masalalarni yechishda ko'plab qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi.

Yakuniy baho – kurs yakunida mutaxassislik bo'yicha nazariy bilim va malaka mahorati/amaliy ko'nikmalarni tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish darajasining ko'rsatkichidir. Tinglovchilar tomonidan o'quv reja va dastur asosida o'qitilgan modullar bo'yicha egallangan nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy kompetensiya, klinik fikrlash qobiliyatini rivojlanganlik darajasi, olingan amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash mahoratini aniqlash va o'qitish samaradorligini baholashni ko'zda tutadi.

Tinglovchining har bir nazorat turi bo'yicha o'zlashtirish darajasi 100 ballik baholash tizimida baholanadi. Bunda nazorat turlari bo'yicha saralash (utish) ko'rsatkichi 70% etib belgilanadi.

Yakuniy baho yuqoridagi ikkita usul orqali to'plangan ballarni qo'shish orqali hisoblab chiqiladi.

1. **Onlayn modullardan o'tish nazorati;**
2. **Offlayn tarzda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish nazorati.**

Malaka oshirish kursida tinglovchilarning kurs bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$YaB = OnN (0,5) + OfN (0,5)$$

bu yerda, YaB – yakuniy baho; OnN - Onlayn modullardan o'tish nazorati; OfN – Offlayn tarzda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish nazorati.

O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat: har bir modulni o'zlashtirgan va oraliq attestatsiyani muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga modul tugatganlik to'g'risida «SERTIFIKAT», o'quv dasturni o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga “Oilaviy shifokor” mutaxassisligi bo'yicha Davlat talablari namunasidagi «GUVOHNOMA/SERTIFIKAT» taqdim etiladi.